

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
“IJTIMOIY-IQTISODIYOT” FAKULTETI**

IJTIMOIV ISH YO'NALISHI

**Bitiruv malakviy ishi himoyaga
tavsiya etildi**

“Ijtimoiy ish” kafedrası mudiri,
f.f.n., dots. L.N.Jo'rayev

« _____ » _____ 2018 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash oilaviy munosabatlar
psixologiyasi**

Bajardi: “ Ijtimoiy ish” ta'lim
yo'nalishi 4-kurs talabasi Zaripova
Madina _____

Ilmiy rahbar: ““Ijtimoiy ish” kafedrası
dotsenti Yusupov R.K.

Samarqand – 2018

MUNDARIJA:

Kirish	3-7
I – bob. O‘zbekistonda aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari.	8-19
1.1 Aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning nazariy – metodologik asoslari.	8-12
1.2 O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning ahamiyati.	12-19
II – bob. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston aholisini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning tahlili.	20-41
2.1 O‘zbekistondagi aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasining asosiy tendensiyalari.	20-26
2.2 O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning aholi turmush farovonligiga ta’siri.	26-41
Xulosa	42-48
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	49-57

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekistonda aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va bu sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganish mavzusi dolzarb ilmiy muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Darhaqiqat, Vatanimizda huquqiy - demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish jarayonida uning yaxlitligini kafolatlovchi oila institutini mustahkamlashning davlat tomonidan istiqbolga yo‘naltirilgan aniq siyosati ham olib borilmoqda. O‘zbekistonda shu sababdan kuchli ijtimoiy siyosat olib borishdek muhim tamoyilni hayotga tatbiq etish uchun mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab qator qonunlar, qarorlar qabul qilindi. Demak, amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi oila va har bir fuqaroniig manfaatini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bularning asosiy maqsadi, mamlakatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, ijtimoiy himoyaga birinchi gald muhtoj bo‘lgan aholi toifalari - ko‘p bolali va kam ta‘minlangan oilalar, yolg‘iz keksalar, etim - esir va nogironlar, talaba va pensionerlarning manfaatlarini har tomonlama himoya etishdir. “Bozor iqtisodiyotini barpo etish shunchaki bir maqsad emas. Barcha iqtisodiy, demokratik siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlarining o‘zi, bu eng avvalo inson uchun munosib turmush va mustahkam oilaviy faoliyat sharoitlarini yaratishdir”. SHu tufayli O‘zbekistonda aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganish, uning rivojlanish muammolarini hamda ijtimoiy echimlarini hayotga tadbiq etish zamon talabidir. Zero iqtisodiyotimizning turli soha va tarmoqlari o‘rtasidagi mutanosiblikning kuchayishi hamda barqaror o‘sish sur‘atlarining ta‘minlanishi natijasida aholi daromadlari, oilalar turmush darajasining sezilarli ravishda oshishi ertangi kunga bo‘lgan ishonchimizning tobora mustahkamlanib borishiga, jamiyatimizda oilalarning ruhiy jihatdan mustahkamlanishiga zamin yaratmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy o'rganilganlik darajasi: O'zbekistonda aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o'rganish orqali jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini oila bilan davlat o'rtasidagi munosabat, o'zaro aloqalar tizimi ham o'rganiladi. Ta'kidlash joizki, hozirga qadar bu yo'nalishlar, ya'ni ijtimoiy ish xodimi uchun oilaviy psixologiyaning qo'llanilishini o'rganish ijtimoiy – siyosiy fanlarimiz tomonidan jiddiy tahlil etilmagan va kam o'rganilayotgan soha hisoblanadi.

Aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o'rganishga doir asarlar O'zbekistonning mustaqillik yillarida jonlana boshladi. Ayniqsa, bu ilmiy yo'nalishning asoslariga oid muammolar taraqqiyotimizning keyingi davrlarida shakllandi. Bu yo'nalishda bir qator ijtimoiy ish sohasida faoliyat olib borayotgan pedagog olimlarning ilmiy-o'quv tadqiqotlari nashr etildi. So'nggi yillarda oilaviy munosabatlar psixologiyasining mohiyati, tabiati hamda uni shakllantirish jarayonlariga bag'ishlangan, hozirgi zamon jamiyati tizimida oila psixologiyasining muammolari tahliliga doir bir qator olimlarning siyosiy - nazariy, falsafiy, huquqiy, ijtimoiy-tarixiy yo'nalishdagi asarlari chop etildi. Xuddi shuningdek, O'zbekistonda bugunga qadar oila psixologiyasining rivojlanishini o'rganishga bag'ishlab bir qator tadqiqot ishlari bajarildi. Mualliflar aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini, uning jamiyatning ma'naviy – axloqiy kamolotiga bo'lgan ta'sirini ko'plab sotsiologik tadqiqot natijalari va vaqtli matbuot materiallari asosida tahlil qilishga harakat qilishgan. Ammo, bu tadqiqotlar asosan o'zbek oilasining turmush tarziga, urf - odatlariga, qadriyatlariga bag'ishlangan bo'lib, ular oila va nikohni o'rganishga ijtimoiy ish, faylasuf, psixolog va huquqshunos olimlarning qo'shgan munosib hissalaridir.

Bundan tashqari, oila tarixini manba sifatida yoritishga xizmat qiladigan, demografik tadqiqotlar ham yaratilgan. Bu asarlar sirasiga M. Qoraxonov, I.

Mullajonov, R.A.Ubaydullaeva, O.B. Ata-Mirzaev, F. Saifnazarova tomonidan chop etilgan monografiyalar, ilmiy maqolalar misol bo'la oladi. Iqtisodchi va geograf olimlar tomonidan bajarilgan ushbu tadqiqotlarda oila tashkil bo'lishi va nikoh munosabatlari taraqqiyotining ba'zi psixologik omillari alohida - alohida demografik jarayonlar sifatida o'rganiladi.

O'zbekistonda oilaning demografik taraqqiyotini ilk bor jamiyatning ijtimoiy-psixologik rivoji bilan uzviy bog'liq holda o'rganish M.R.Bo'rieva tomonidan amalga oshirildi. Demograf olim o'z tadqiqotlarida, respublikada tug'ilish darajasi o'zgarib borishi, unga ta'sir etgan psixologik omillarning o'ziga xos xususiyatlarini shahar va qishloq aholisi misolida ochib bera olgan. Ushbu asarlarda O'zbekiston oilalarining ijtimoiy - demografik tarkibi, turlari, vazifalari va aholining ruhiy holati, XIX asr oxirlaridan to XX asr oxirigacha bo'lgan tarixiy davr chegarasida mukammal yoritilgan.

Jamiyatda oilaning tutgan o'rni va psixologik roli, ayniqsa ularning nazariy asoslari ilmiy adabiyotlarda o'rganilgan. Bu mavzuda mamlakatimiz olimlaridan R.A.Ubaydullaeva, L.YAxyoeva, M.Fayzieva A.Jabborov, ning ishlarini ko'rsatish mumkin.

Adabiyotlar va manbalar tahlili ko'rsatdiki, O'zbekistonda bu mavzuning tarixiy – demografik va ijtimoiy psixologik aspektlari hanuzgacha to'la ochib berilmagan. Mavjud adabiyotlarda oilani ijtimoiy institut sifatida psixologik jihatdan o'rganish masalalari o'zining etarli ifodasini topmagan. Qolaversa, barkamol avlod tarbiyasida oila psixologiyasining o'rni ham ilmiy jihatdan ishlab chiqilmagan. Bunga sabab, mustaqillikgacha oila tarixini yorituvchi manbalar, aholi statistikasiga oid bo'lgan arxiv hujjatlari maxfiy holda saqlandi. Mustaqillik yillarida, ko'plab arxiv hujjatlari va aholi statistikasiga oid ma'lumotlar ilmiy muomalaga tortilganidan keyin ham mavzuni o'rganish juda murakkab bo'lib qoldi. Bu mavzuni tarixiy demografik dalillar va ijtimoiy-psixologik asoslarda yoritish mumkin. SHu

tufayli tadqiqot ishida ijtimoiy ish, tarix va demografiya fanlarining ilmiy, nazariy - uslubiy asoslaridan keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishdan ko‘zlangan maqsad – O‘zbekistonda aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasi muammolarini yaxlit ilmiy – nazariy tadqiqot tarzida tahlil etish va bunda ijtimoiy ish sohasining tarixiy, milliy va xorijiy davlatchilik tajribasini hamda ijtimoiy ish sohasiga oid bo‘lgan zamonaviy amaliyotni umumlashtirishdan iborat. Bosqichma - bosqich shakllanib borayotgan fuqarolik jamiyatining O‘zbekistondagi omillarini, aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini, fuqarolarimiz huquqiy madaniyati, huquqiy ongi tabiatini teran o‘rganish uchun quyidagi **vazifalarni** hal qilish belgilangan:

- O‘zbekistonda aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning nazariy – metodologik asoslarini tahlil qilish;
- O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasining ahamiyatini yoritish;
- O‘zbekistondagi aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasining asosiy tendensiyalarini aniqlash, ma’naviy-madaniy asoslari tabiatini ochib berish, oila instituti bilan ijtimoiy psixologik aloqadorlikni ko‘rsatib berish;
- Mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonida barkamol avlod tarbiyasida oila psixologiyasining o‘rni va muammolarini tahlil etish, shuningdek aholini manzilli himoyalashning xususiyatlarini ochib berish;
- Hozirgi zamon jamiyati tizimida oilaning ijtimoiy – psixologik holati tahlilining muammolarini yaxlit ilmiy – nazariy tadqiqot tarzida tahlil

etish; oilaning tabiati, ruhiy munosabatlari va uning qaror topish qonuniyatlarini aniqlash.

Malakaviy bitiruv ishining tarkibiy tuzilishi: malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, to'rtta paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I – bob. O‘zbekistonda aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning nazariy – metodologik asoslari.

1.1 Aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning nazariy – metodologik asoslari.

Jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini sifatida oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, yosh oilalarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish, bu borada davlat va nodavlat tashkilotlarining roli va ahamiyatini kuchaytirish, jismoniy sog‘lom, ma‘naviy etuk va barkamol avlodni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanib ulgurdi. Zero, mamlakatimizda oila, onalik, otalik va bolalik huquqiy jihatdan himoyalangan bo‘lib, milliy qonunchiligimiz, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tomonidan ularning huquq va manfaatlari kafolatlangan.

Mazkur paragrafda aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning nazariy – metodologik asoslari yoritishga harakat qilinadi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan dastlabki malakaviy bitiruv ishlardan biri sifatida ijtimoiy ishning birlamchi mijozlari sanaluvchylar va bolalarga ijtimoiy madad ko‘rsatishning psixologik munosabatlar tajribasiga yangicha yondashuvlar asosida qarab chiqishga harakat qilinadi.

Aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini qo‘llash ijtimoiy ish hodimlari uchun nihoyatda zarurdir. Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi - bu farzand ko‘rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligini hamda er yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta‘minlashdan iboratdir.

Prezidentimiz I.A.Karimov oilaning tub mohiyati haqida gapirib: "Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta‘minlaydigan, muqaddas urf-

odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor", degan edilar.

Darhaqiqat, oila - har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istaklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o'zbek xalqining qadriyatlari va ma'naviy merosi ravnag'ini ta'minlovchi tarbiya maskanidir. "Halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan" . Bola shakllanishining ilk maktabi esa ota-onaning o'zaro munosabatlari majmui bo'lib hisoblanadi. "Oila haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo ko'z o'ngimizda ona siymosi shakllanadi... Oila muqaddasligini ta'minlovchi birinchi omil - ona, ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehru-muruvvati, sadoqati va vafodorligidir". Ota-onalar munosabatlarda namoyon bo'luvchi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy toifadagi qadriyatlar ularning o'zaro munosabatlarida uyg'unlasha borib, oilada o'zaro munosabatlar maromini vujudga keltiradi. Oiladagi ushbu ijtimoiy jarayon yosh avlodning moddiy olam, ijtimoiy turmush haqidagi tasavvurlari, nuqtai nazarlari, tushunchalari, dunyoqarashlari va sharqona odob-axloq qoidalari va ularga amaliyotda rioya etishning to'g'ri yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi. YOsh avlodning ma'naviy qiyofasi, ularning xatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida shakllanadi.

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini ko'rsatadi. Qadimgi xalqlardan qolgan asori-atiqalarda, muqaddas diniy manbalarda, o'zbek xalqining og'zaki ijodi durdonalarida, sharqning buyuk mutafakkirlarining asarlarida sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqiga xos oilaviy shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan odob-axloq qoidalari, me'yorlari, insoniy fazilatlar ifodasi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Manbalarda oilasiz insoniy

hayotni tasavvur qilib bo'laslik, barkamol farzand tarbiyasi, undagi er-xotin va o'zaro munosabatlar madaniyati, baxtli va farovon turmush kechirish yo'llari, hayotiy misollar yordami bilan hikmatlar va nasihatlar ko'inishida bayon etilgan.

Oilaviy turmush bilan jamiyat taraqqiyotining doimiy mushtarakligi tufayli jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham oilaviy muammolar uning ilg'or vakillari diqqat-e'tiborida bo'lgan. Oilaviy hayot jamiyat taraqqiyotida va farzandlarning kamolotida uchun shu qadar muhimki, xuddi shu bois uni biror soniya ham diqqat-e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Prezidentimiz I.A.Karimov va davlatimiz rahbarlari tomonidan hozirgi davrda ham bu masalaga alohida e'tibor qaratayotganligi bejiz emas, albatta "Oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab-quvvatlash bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor".

Jumladan, 1994 yil butun dunyo jamoatchiligi va xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan "Xalqaro oila yili" deb e'lon qilinishi, 1998 yil Respublikamizda "Oila yili" deb belgilanishi va bularning uzviy davomi sifatida 1999 yil "Ayollar yili", 2000 yil "Sog'lom avlod yili", 2001 yil "Onalar va bolalar yili", 2002 yil "Qariyalarni qadrlash yili", 2003 yil "Obod mahalla yili" va 2004 yil "Mehr va muruvvat" yili deb nomlanishi buning yorqin dalilidir.

Ana shunday xalqaro ahamiyatga molik tadbirlarning kun tartibida turishi oila hayoti, undagi shaxslararo munosabatlar mustahkamligi va uning farovonligi kabi masalalar ijtimoiy psixologiyaning asosiy kategoriyasi va shaxslararo munosabatning asosi sifatida nihoyatda dolzarb muammo ekanligidan dalolat beradi.

"Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla, yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi". Ko'rinib turibdiki, oilaviy hayot masalalari hozirgi davr fani tadqiqot

yoʻnalishining ustuvor sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Respublikamizda "Oila" ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi hamda hukumat tomonidan "Oila kodeksi" (1998) qabul qilinishi bugungi kunda oilalarning mustahkam va barqarorligini saqlash uchun qilinayotgan muhim amaliy ishlardan hisoblanadi.

Afsuski, oila-nikoh munosabatlarining hozirgi davrga kelib zaiflashib borayotganligi dunyoning deyarli koʻpchilik mamlakatlarida: Amerika Qoʻshma shtatlari, Angliya, Fransiya, Germaniya, Boltiq boʻyi davlatlari, Rossiya va boshqa qator davlatlarda yaqqol namoyon boʻlmoqda oʻzbek oilalari hayotida oila-nikoh munosabatlarining zaiflashuvi va uning buzilishlari yuqorida qayd etilgan davlatlardagiga qaraganda ancha kam boʻlsa-da, afsuski ajralishning asoratlari oila aʼzolari va qarindosh-urugʻlar oʻrtasida nihoyatda ayanchli oqibatlar, noxush holat va hodisalar keltirib chiqarayotganligi kuzatilmoqda. Demak, oilalarning buzilishi va uning oqibatida yuzaga keladigan turli xildagi asoratlar ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya fanlarining tadqiqot predmeti sifatida keng oʻrganishni taqozo etadi.

Oʻzbekiston psixologlari tomonidan oʻzbek oilalariga xos muammolarni oʻrganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila-nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oʻzbek oilalaridagi milliy oʻziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi birqator masalalar har tomonlama oʻrganilib tahlil qilingan .

Biroq, yuqoridagi ilmiy izlanishlarda oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar taʼsirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari maxsus tadqiqot predmeti sifatida oʻrganilmagan. Aslida oilaviy turmushda yuzaga keladigan muammolar, hatto oilaning buzilishi va uning salbiy asoratlari, hamma-hammasi undagi shaxslararo munosabatlar taʼsirining natijasi ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak. Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, oila barqarorligi, baxtli va farovon turmush kechirish, albatta, shaxslararo munosabatlar taʼsirining ijtimoiy-psixologik

xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi tufayli, aynan shu muammo yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

1.2 O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning ahamiyati.

O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning ahamiyati haqida fikr yuritganda bola tarbiyasida oilaning psixologik roli haqida to‘xtalish kerak. Chunki oila jamiyatning bir bo‘lagi. Shunday ekan, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo‘lib, biologik, ijtimoiy, ahloqiy mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oila tor maishiy tushuncha emas, balki u ijtimoiy jamoa. SHu sababli oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi. Jamiyatdagi o‘zgarishlar oilaga ta’sirini ko‘rsatganidek, oiladagi o‘zgarishlar ham jamiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Buni biz Prezidentimiz tomonidan 2012-yil “Mustahkam oila yili”, 2016 yil “Sog‘lom ona va bola yili” deb e’lon qilinishi misolida ko‘rishimiz mumkin. Haqiqatdan ham 2015 yil 5 dekabr kuni Toshkentdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda davlat va jamoat arboblari, fan, madaniyat va san’at namoyandalari, poytaxt jamoatchiligi, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy davlatlarning elchixonalari va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari ishtirok etdi. Yig‘ilishda O‘zbekiston prezidenti Islom Karimov tantanali yig‘ilishda ma’ruza qildi. Tabdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov kirib kelayotgan yangi – 2016 yilni mamlakatimizda Sog‘lom ona va bola yili deb e’lon qilishni taklif etdi. Shu munosabat bilan hukumatimiz tomonidan “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi ishlab chiqilishi oilada yoshlar tarbiyasiga e’tiborni kuchaytiradi va

oilalarni mustahkamlash bilan bog‘liq masalalarni echimini topishga xizmat qiladi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: “... hammamizga ayon bo‘lishi tabiiyki, oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir”. Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi ekan, uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaatdordir. Oilada ma’naviy va jismoniy etuk avlodni tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozim. SHuni unutmash lozimki, farzandlarimizning har tamonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina, oila tarbiyasi muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Yosh avlod hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar. Oiladagi mavjud an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida yigit-qizlar asta-sekin kamol torib boradilar. An’ana va marosim tarbiyaning qudratli quroliga aylanadi.

Kelajagimizning bunday bo‘lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog‘liq. Bu qonuniyat oilaning tarbiya borasidagi faoliyatiga ham bog‘liq. Oilaviy tarbiyaning murakkabligi shundaki, har bir oila o‘ziga xos bir olam, u tarbiya ishida ham o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo‘lsagina, o‘sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta’minlashi mumkin. Oila tarbiyasi ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo‘yicha yutuqlar, tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg‘in jalb qilishga ham bog‘liqdir. Har bir ota-ona o‘z farzandlarini tarbiyalash borasidagi burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlariga bog‘liqdir. Bundan tashqari normal oilaviy muhit, ota-onaning obro‘si, to‘g‘ri kundalik reja, bolaning kitob o‘qishiga, mehnat qilishiga o‘z vaqtida jalb qilishlari ham muhim muvaffaqiyat garovidir.

Oilada ota yoki onaning yo‘qligi yoki ketib qolishi tarbiyaga juda katta zarar ko‘rsatadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta’siri kuchi yo‘qoladi. Oila

tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarahotlanadi. U tajang, serjahl, qopol, dag'al bo'lib qoladi, kattalarga ishonmay qo'yadi. O'qishi ham pasayib ketadi.

Oila tarbiyasidagi muammolardan biri yolg'iz farzandni tarbiyalashdir. Bunday sharoitda bola faqat kattalar davrasida bo'ladi. O'ziga yaqin yoshdagi bolalar bilan muomala qilish imkoniyati bo'lmaydi. Oilada ko'p bola bo'lsa, ular bir-birini tarbiyalaydi. Bundan tashqari oiladagi kelishmovchiliklar, ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi tengsizlikka asoslangan munosabatlar, ayrim ota-onalarning madaniyat va ma'lumotining nisbatan past saviyada ekanligi tarbiyaga xalaqit beradi, oilaviy muhitda qarama-qarshiliklar, o'zaro kelishmovchiliklarni vujudga keltiradi.

Oila tarbiyasi uydagi omillarga diqqatini qaratmog'i lozim. Jumladan, oilada ruhiy xotirjamlik, samimiylik munosabatlari shakllangan bo'lishi, ota-ona obro'si yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oiladagi kattalar o'rtasidagi birlikni saqlanishi, bola shaxsini mehnatda tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevisish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rganish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, boladagi mustaqillikka intilishni va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash kabilardir.

Oila tarbiyasida ota-ona obro'si muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bu obro'ni esa ibratli hulqi, ahloqi, intizomi, kamtarligi, ishbilarmonligi bilan qo'lga kiritadilar. Obro' orttirishda eng avvalo, ibrat-namuna muhim rol o'ynaydi. Oilada ota-onalarning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim ahamiyatga egadir. Ularning odilona me'yori talabchanligi obro' orttirishning muhim yo'llaridan biridir. Tarbiya jarayoni zerikarli, quruq haqiqatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim.

O'zbek oilasi tarbiyasida, ayniqsa, otaning obro'si katta ahamiyatga egadir. Ayoli, bolalari oldida obro'ga ega bo'lgan ota, jamoat orasida ham obro' topadi. Oilada obro'si yo'q otadan tarbiya olgan bola, ko'pincha, o'g'ri, muttaham,

yolgʻonchi boʻlib etishishi shubhasizdir. Ota-ona farzandlari nigohida eng buyuk kishilardir. Shuning uchun eng yaxshi sifatleri bilangina obroʻ qozonishlari kerak. Insoniy fazilatlar sohibi boʻlgan ota-ona oʻz farzandlari tamonidan bir umr eʻzozlanadi.

Bolalarni barkamol inson qilib etishtirishda maktabni oila bilan bogʻlamasdan, muvaffaqiyatga erishib boʻlmaydi. SHuning uchun maktab va ota-onalar oʻrtasidagi taʻlim-tarbiyaga oid ishlarni kengaytirish lozim. Ota-onalarning oʻqituvchilar bilan boʻlgan uchrashuvlarida aytgan fikrlari ayniqsa, ota-onalar uchun qimmatlidir. Chunki ular oʻz farzandlari toʻgʻrisida koʻproq maʼlumotlarni bilib oladilar. Shunday ekan, bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladilar.

Bola maktabga kirib, to uni tamomlab chiqqunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa oʻrnatib, farzandining oʻzlashtirishi, hulq-atvoridan hamisha xabardor boʻlishi, tarbiya masalalari boʻyicha oʻqituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib, uni darsdan soʻng nima bilan mashgʻulligidan xabardor qilishi lozim. U oʻz navbatida oʻqituvchi ham bolaning oʻqishi, odobi, hulqi, maktabda oʻzini tuta bilishi haqidagi maʼlumotlarni ota-onaga etkazish, zarurat tugʻilganda hosil boʻlgan muammolarni birgalikda hal qilish zarur. SHundagina oʻquvchi oldiga bir talab qoʻyilishiga erishiladi. Bolasi maktabga borgan ota-ona maktab yaʼni shu jamoaning aʼzosiga aylanadi. Shu sababli ota-onalar maktabning ijtimoiy hayotida faol qatnashishlari shart. Oʻqituvchi ham oʻz oʻquvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yoʻlga qoʻymogʻi lozim.

Ota-onalarning mahalla faollari, mehnat fahriylari bilan tarbiya sohasida hamkorlik qilishlari zarur. Bu ishlar oila tarbiyasiga salmoqli hissa qoʻshadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy oʻzgarishlar sharoitida oilaviy tarbiya masalalariga eʻtibor yanada kuchayib, dolzarb mavzuga aylanmoqda. Oila deb atalmish aravani tortib borayotgan er va xotinning bir-biriga elkadosh boʻlishini,

o‘zaro odoblarini, bir-biriga bo‘lgan mehribonliklarini ko‘rgan farzandlar ulardan o‘rnak oladilar va ularga o‘xshashga harakat qiladilar. Chunki farzand aytgan nasihatini esidan chiqarishi mumkin, ammo ko‘rganini hech qachon esidan chiqarmaydi. Oilada farzand tarbiyasining bu jihatini hech qachon esdan chiqarmaslik zarur.

Shu sababdan aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasi o‘rganar ekanmiz, quyidagi holatni ilmiy jihatdan kuzatamiz. O‘zbekistonda kam ta‘minlangan va ko‘p farzandli oilalar bilan ijtimoiy ish olib borishda differensial yondashuv mavjud. Biz yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, har bir davlat ijtimoiy siyosatining diqqat markazida oilalar va bolalar manfaatlarining muhofazasi yotadi. Bu avvalo, tegishli davlat qonunchilik hujjatlarida qat’iy belgilab berilgan va xalqaro huquq me‘yorlari va rasmiy hujjatlarda tasdiqlangan (BMTning «Bola huquqlari to‘g‘risida» Konvensiyasi). Tabiiyki, O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu jarayondan chetda qolmagan va mamlakatimiz qonun ijodkorligining asosiy yo‘nalishi sifatida oila va bolalar ehtiyojlarining huquqiy kafolatlari ustuvor ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda oilaning mustahkamligi, uning ko‘p qirrali manfaatlarini himoyalash, ijtimoiy himoyaga muhtoj ko‘p bolali, kam ta‘minlangan, nogiron a‘zolari bo‘lgan, noto‘liq oilalarga sohalararo yordam ko‘rsatishga alohida e‘tibor berilib kelinmoqda. Chunki, ko‘p bolali oilalar odatda ijtimoiy xatar guruhiga mansub hisoblanadi. Bunday oilalarda o‘zaro munosabat muammolarini keltirib chiqaruvchi qator sabablarning mavjudligi ularni aholining zaif qatlamlaridan biriga aylantiradi. Xuddi shunday oilalar bilan ijtimoiy ish yuritishda har bir oilaning xususiyatlari va ichki imkoniyatlariga tayaniladi.

Hozirgi paytda ijtimoiy himoyaga muhtoj oila bilan ishlashdan asosiy maqsad uning maqomini o‘zgartirish, shaxslararo munosabatlar, ma‘naviy-psixologik mikroiklimini yaxshilash va oilaviy tarbiya kamchiliklarini bartaraf qilishdan iborat.

CHunki, bu kabi oilalarning farzandlari turli sabablar bilan institutsional muassasalar tarbiyasiga topishirilishi xavfi katta. Bunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslik va bolalarni oila bag‘rida asrab qolish uchun asosan ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, ularni tarbiyaviy jarayonga jalb qilish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish zarur.

O‘zbekistonda kam ta‘minlangan hamda boquvchisni yo‘qotgan oila farzandlari uchun mo‘ljallangan maktab-internatlar haqida ma‘lumot jadvali

	2010 yil			2011 yil		2012 yil	
	Muassasa soni	Muassasaga kabul kilingan bolalar soni	Tarbiyalanuvchilar soni	Muassasaga qabul kilingan bolalar soni	Tarbiyalanuvchilar soni	Muassasaga qabulkilingan bolalar soni	Tarbiyalanuvchilar soni
jami	16	432	3866	543	3989	530	3997

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kam ta‘minlangan hamda boquvchisini yo‘qotgan oila farzandlari uchun mo‘ljallangan maktab-internatlarida tarbiyalanuvchilarning soni afsuski, yildan-yilga oshib bormoqda. Masalan, 2010 yilda rasman bu kabi muassasalar tarbiyalanuvchilarning soni 3866 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2013 yilga kelib ular 3997 nafarga etgan. Bu esa, albatta tarbiyalanuvchi bolalarning internatlarda deprivatsiyani boshidan kechirayotganligini to‘g‘ri anglash va ularni ijtimoiy himoyalash tizimida oilalar va bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish zarurligini taqozo etmoqda.

Yuqoridagi ma‘lumotlarga asoslanib, uyida davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat va kam ta‘minlangan va ko‘p farzandli oilalar uchun ko‘rsatiladigan yordam turlari:

Vaqtinchalik yashash uchun ijtimoiy-maishiy xizmat ko‘rsatish:

- bepul ovqat bilan ta‘minlash;
- faslga qarab kiyim va oyoq kiyim bilan ta‘minlash;

- bolalarni o‘z-o‘ziga xizmat kuo‘ikmalarini rivojlantirishga o‘rgatish;
- engil inventar va o‘quv qurollari bilan ta‘minlash;

Ijtimoiy-tibbiy:

- dastlabki tibbiy tekshiruv;
- sog‘lomlashtirish va davolash tadbirlarini amalga oshirish;
- davolanish uchun sanatoriyalarga va davolanish xizmatiga muhtoj bolalarga yo‘llanma olishga ko‘maklashish;
- malakali tibbiy maslahatni amalga oshirish;

Ijtimoiy psixologik:

- ijtimoiy-psixologik va psixologik maslahat;
- psixoterapevtik yordam;
- psixologik trening;
- psixologik yordam;
- ijtimoiy psixologik patronat;

Ijtimoiy-huquqiy:

- qonunda ko‘rsatilganidek ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va yuridik maslahat olish;

Ijtimoiy-pedagogik:

- ijtimoiy-pedagogik maslahat;
- maktab dasturi bo‘yicha bolalar va o‘smirlar ta‘limini tashkillashtirish;
- bo‘sh vaqtini tashkillashtirish;
- o‘smirlarni kasbga yo‘naltirishni, kasbiy ta‘lim va ish bilan ta‘minlashni tashkillashtirish yuzasidan o‘qitish;

Shuningdek, ijtimoiy ishchi va ijtimoiy pedagoglarni kam ta‘minlangan oilalar bilan ishlashi uch yo‘nalishdan: ovqatlanish, yo‘l haqini ta‘minlash va

tashkillashtirishni qoʻllab - quvvatlash va ijtimoiy yordamni oʻz ichiga oladi. Bu uchta yoʻnalish judayam zarur. Bu yordam turlariga psixologik nuqtai nazardan qarasaq ham taʼminlangan oilaning oʻzida muammoni hal qilishga qaratilgan, bu esa mazkur toifalardagilarda davlatga va oʻz hayotiga nisbatan boqimandalik pozitsiyasini shakllantiradi.

II – bob. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston aholisini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning tahlili.

2.1 O‘zbekistondagi aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasining asosiy tendensiyalari.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston aholisini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishni amalga oshirish maqsadida oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta’sirining mamlakatimiz psixologlari tomonidan tahlil qilinishini kuzatamiz. Ijtimoiy-tarixiy va ilmiy manbalarning guvohlik berishicha, o‘zbek oilasining hayoti, undagi o‘zaro munosabatlar, uning urf-odatlarini, an‘analari va qadriyatlarini, turmush tarzi, madaniyati, tarbiyaviy muhiti va mehnat shart-sharoitlarini jiddiy ilmiy muammolar sifatida XX asrning 60-70 yillaridan e’tiboran o‘rganila boshlandi. Ana shu yillardagi dastlabki tadqiqotlar ko‘proq falsafiy, tarixiy, etnografik yo‘nalishdagi va oilaning tarbiyaviy va mehnat shart-sharoitlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlar o‘z xarakteriga ko‘ra, oilaning madaniy, huquqiy, tibbiy, uning turmush tarzi, undagi tarbiya muhitining ahamiyati, o‘zaro munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini o‘rganishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Mazkur tadqiqotlar sirasiga quyidagilarni keltirib o‘tish o‘rinlidir. Jumladan, T.T.To‘ychieva (2000), M.Xolmatova (2000)lar tomonidan oilaviy turmushning falsafiy jihatlari, oila-nikoh munosabatlarining takomillashish an‘analari va hozirgi zamon o‘zbek oilasining turmush tarzi o‘rganilgan. Sh.A.Isroilov (1979), F.M.Otaxo‘jaev (1995) va boshqalar o‘z tadqiqotlarida o‘zbek ayollarining huquqiy masalalari, oila-nikoh munosabatlarining huquqiy jihatlari o‘rganganlar. M.R.Bo‘rieva (1997) o‘z tadqiqotlarida o‘zbek oilasining demografik jihatlari tadqiq etgan.

B.Z.Umarov (1986) esa o‘z ishlarida o‘zbek oilasining sotsiologik jihatlari tadqiq etgan. Ayniqsa, Respublikamiz pedagog olimlarining mazkur sohada amalga

oshirgan tadqiqotlari e'tiborga loyiqdir. O.Musurmonova (1999), H.Uzoqov (1992,1994) va boshqalar o'z tadqiqotlarida o'zbek oilasining o'ziga xosligi, tarbiyaviy imkoniyatlari va shart-sharoitlari, o'zaro munosabatlar shakllanishining ma'naviy asoslarini keng o'rganganlar.

Oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi o'zaro munosabatlar, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlari keyingi yillarda psixologiya fanining keng tadqiqot ob'ektiga aylanib bormoqda. Bu sohada psixolog olimlardan G'.B.SHoumarov (1986, 1990, 1994, 2001), E.G'oziev (1994, 2002). V.M.Karimova (1987, 1994, 1999), va boshqalar olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

Respublikamizning etakchi psixolog olimlaridan G'.B.SHoumarov (1990, 1994, 2000) o'z tadqiqotlari natijalariga tayanib, oilaning mustahkam bo'lishi, er-xotinning baxtiyor hayot kechirishlari va tinch-totuv yashashlarida ularning o'zaro qovushishi muhim rol o'ynaydi (165) deb ko'rsatadi. U o'zaro qovushuvlarni shartli ravishda 3 tarkibiy qismga bo'linishni e'tirof etadi. Ular: 1) biologik qovushuv, 2)psixologik qovushuv, 3)sotsial qovushuv.

Ba'zi hollarda mijoz turi jihatidan kelin-kuyovlar mos kelmasa-da, lekin ular orasidagi hissiyot kuchi, psixologik-pedagogik bilim saviyasi, oilaviy hayotni mustahkamlashga intilish, tarbiya va madaniy saviya darajasi, o'zaro munosabat maromlari ularning o'zaro qovushishini, oilaning mustahkamligini ta'minlay oladi.

Kelin-kuyovlarda alturizm (mehr-muhabbat) xudbinlikdan ustun bo'lsa, har qanday tafovut, kelishmovchilik oilaviy turmush uchun xavf tug'dirmaydi (165;49). SHuningdek, psixologik qovushuvda markaziy o'rinni shaxs psixologiyasining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan fe'l-atvor va xarakter egallashi alohida ta'kidlanadi.

Muallif tadqiqotlarida oilada er bilan xotin orasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni psixologik tahlil qilib, ularning asosiy sabablari kelin-kuyovning kasb-faoliyati va oilaning qadr-qimmatini o'lchashlari unda etakchilik mavqeini

qo'lg'a kiritish uchun kurashishlari, bir-birini psixologik xususiyatlarini tushunib etmasliklari, uy-ro'zg'or ishlarini bajarishga tayyor emasliklari, jinsiy tarbiyaga oid bilimlarning etarli emasligi, bolalarni tarbiyalashdagi kelishmovchiliklari, mijozlarning mos kelmasligi, jinsiy masalalarda kelisholmasliklari, farzandsizlik, rashk va ishonchsizlik ekanligini ko'rsatib o'tadi. SHuningdek, oila barqarorligiga salbiy ta'sir etadigan eng muhim omillardan biri - bu qaynona-kelin orasidagi kelishmovchiliklar ekanligi haqida to'xtalib, buning muhim sabablari: qizlarda nikohgacha oilaviy hayotga, qaynonaga va qaynona kelin munosabatlariga nisbatan salbiy tasavvurlarning shakllanganligi; qaynona va kelinning dunyoqarashlari, o'y-ro'zg'or tutishlari orasida kelishmovchiliklarning paydo bo'lishi; ba'zi kelinlarning kelinlik va onalik vazifalarini bajarishga tayyor bo'lmasligi; ayrim hollarda qaynona-kelin bolalar tarbiyasi masalasida kelisholmay qolishlari: ba'zan katta xonadonlarda ovsinlar qaynona iltifoti uchun bir-biri bilan kelisholmasligi; ba'zi hollarda qaynona-kelinning yosh xususiyatlari, qiziqishi, orzu-havaslarlari, ishlashi yoki o'qishini hisobga olmasligi; ayrim kelinlarning yangi oilaga moslashishining qiyin kechishi ekanligi keltirib o'tilgan.

E.G'ozievning (1992, 2002) oilaviy hayot muammolari sohasida olib borilayotgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Olimning ta'kidlashicha, oilaviy munosabatlar turli negiz; iqtisodiy, mafkuraviy, hissiy irodaviy, axloqiy-aqliy, qarindosh-urug'chilik, yaqinlik va do'stlik- birodarlik asosida quriladi. Ana shu negizlar baquvvat oilada er-xotin totuvligi, oila barqarorligi, oilaning baxti va farovonligi ta'minlanadi. Olimning fikricha, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yoki yangi oilalar qurishda ana shu muhim asoslarga e'tibor berish va ba'zi bir narsalardan ogoh bo'lish zarur. "Oila but bo'lishi uchun birinchi navbatda, shaxslararo tenglikni qaror toptirish kerak. Ikki yosh, ya'ni bo'lg'usi kuyov-qayliqlar bir-birlarini chuqurroq o'rganishlari, ayrim nuqsonlardan ko'z yumushlari zarur. Yoshlarni qiyinchiliklarni engishga, o'zgacha shart-sharoitga ko'nikishga bolalikdan

o'rgatib borish lozim. Eng muhimi ular o'rtasida chin muhabbat bo'lishi darkor. Oilada mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish ayni muddaodir".

E.G'oziev o'z tadqiqotlarida oilada yuzaga keladigan ziddiyatlar va oila buzilishlari haqida ham alohida to'xtalib, uning muayyan sabablari: er-xotinning xarakter jihatidan mos tushmaganligi, farzand ko'rmaslik, kelinning ma'naviy va jismoniy jihatdan haqoratlanganligi, moddiy ta'minotdagi kamchiliklar, tarbiyaviy qashshoqlik, oilada ortiqcha an'ana va marosimlarning mavjudligi, ichkilikka ruju qo'yish, rashk, madaniy hordiq chiqarish imkoniyatining yo'qligi, qarindosh-urug'chilikdagi ko'ngil buzar ishlar mavjudligini ko'rsatib o'tadi. SHuningdek, E.G'ozievning bu sohadagi ishlari bilan tanishar ekanmiz, ularda o'zbek oilasidagi shaxslararo munosabatning o'ziga xosligi, oila barqarorligining ijtimoiy-psixologik mezonlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar borligini ko'ramiz.

V.M.Karimova (1987, 1994) o'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi, o'zbeklarning oilaviy psixologiyasining o'ziga xos tomonlari haqida salmoqli tadqiqot ishlarini olib borgan. Muallif tadqiqotlari davomida o'zbek xalq og'zaki ijodida, islom dinining muqaddas manbalarida, sharq mutafakkirlari asarlarida, taniqli pedagog va psixolog olimlar asarlarida nikoh va oila, oilaviy hayot muammolariga doir materiallarni izchil o'rganib, psixologik tahlillari asosida bir qator ilmiy g'oyalarni ilgari surgan.

Muallifning fikricha, oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar murakkab va ko'p komponentli psixologik tizimlar bo'lib, ularning tarkibiga oilaning umumiy qadriyatlar, shaxslararo munosabatlarga xos tasavvurlar, erkak va ayol fazilatlari, ularning oilaviy munosabatlardagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi, oilaviy rollar va ularni amalga oshiruvchi ijtimoiy ustanovkalar, reproduktiv tasavvurlar va boshqa ijtimoiy-psixologik tushunchalar kiradi.

Oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar asosan shaxs ijtimoiylashuvining dastlabki davridanoq shakllana boshlaydi va uning o'zgarishida ijtimoiy-psixologik omillar,

ta'lim-tarbiya, oila muhiti, milliy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlar, shaxsning muloqot muhiti va shaxsiy faolligi muhim rol o'ynaydi. Oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar har bir oila a'zosining bilish tizimida shakllangan ong tarkiblaridan iborat bo'lib, shaxsning ijtimoiy va individual tajribasi sifatida uning oilaviy hayotga tayyorligini ta'minlaydi .

V.M.Karimova tadqiqotlarida oilaviy ijtimoiy tasavvurlar shakllanishida bola shakllanayotgan oila va undagi o'zaro munosabatlar xarakteri muhim ahamiyat kasb etishi, ya'ni oilaning katta yoki kichikligi, to'liq yoki noto'liqligi, undagi rollar, jinsiy o'zaro munosabatlar haqida va reproduktiv tasavvurlar xarakterini belgilashi va shaxsiy ijtimoiy ustanovkalar yo'nalishida aks etishi aniqlangan.

Oiladagi o'zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differentsiatsiyasi o'zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo'lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy ma'naviy muhiti, u erdagi milliy qadriyatlar, an'analar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog'liqligi asoslangan. Muallif nikoh yoshigacha bo'lgan yoshlar bilan oilali er-xotinlarning oilaviy ijtimoiy tasavvurlari o'rtasidagi asosiy farqlarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning sabablarini ko'rsatib o'tgan.

Muallifning e'tirof etishicha, o'zbek oilasidagi ajralish sabablari, motivlari va ularning qanday holatlarda "sabab" va qanday holatlarda "bahona" rolini o'ynashi, ana shunday holatlarda ularning oldini olish choralari haqida to'xtalib, mutasaddi xodimlarni yordamga chaqirish, yoshlarga esa zarur maslahatlar berish lozim .

Muallif tojik oilasida nizolar vujudga kelishining etnopsixologik xususiyatlariga: yoshlar hayotiga ota-ona va yaqin qarindoshlarni noo'rin aralashuvi: ularda oilaviy muommolarni echishga xos bilimning etarli emasligi: oilada erkaklarning roli ustunligi: yoshlarning ota-onalarga kuchli bog'langanligi: unda ayollar faolligi va etakchilikka intilishini erkaklar tomonidan tan olinmasligi: ajralish madaniyatining pastligi, oilaviy rollar taqsimotida kelisha olmaslik omillarini kiritadi. Muallif tojik oilalarining mustahkam va barqarorligiga ta'sir etadigan muhim

ijtimoiy-psixologik omillar - oilada urning mavqeini muhim deb bilish: er-xotinni oila qurish motivlarining uyg'unligi: oilaviy turmushda yuzaga keladigan muammolar va hayotiy masalalarni er-xotin tomonidan hamkorlikda echilishi, tojik oilasida bola tarbiyasida, qaynona-kelin o'rtasida, shuningdek, rashk qilish borasida nizolarning kam uchrashi yuzasidan xulosaga kelgan.

Muallifning tadqiqot xulosalariga ko'ra, ajralish va uning asoratlari o'zbek oilalarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ko'p bolalilik, uning murakkab tuzilmaliligi, qarindosh-urug'chilik aloqalarining kuchliligi, oila-nikoh munosabatlarining etnik xususiyati ko'proq saqlanib kelganligi, o'zbek oilasida ajralish boshqa xalqlarnikiga nisbatan qoralanishi, er-xotinlarning turmush darajasi, bilim saviyasi, muloqot madaniyati va shu kabilar bilan asoslanadi.

Shuningdek, o'zbek oilalaridagi ajralish erkaklarga nisbatan ayollarda, shahar oilalariga nisbatan qishloq oilalarida muammoli va salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi, er-xotin va ularning yaqinlari orasida nizolar hamda ziddiyatli holatlarning keskinlashuvi saqlanib qolishi, ajralish tufayli yuzaga kelgan, noto'liq oilalar bolalari shaxsiga, ularning ruhiyatiga jiddiy salbiy ta'siri ilmiy asoslangan.

Mamlakatimiz psixolog olimlari tomonidan olib borilgan yuqoridagi qator ilmiy tadqiqotlarida oilaviy turmush masalalarining, oila-nikoh muammolarining juda ko'p jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, lekin oila va jamiyat taraqqiyotining abadiyligi hamda milliy madaniy kamolotning butunligini ta'minlovchi muhim mexanizm "Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'siri" ning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish masalasi tadqiqotlar vazifalari qatoriga kirmagan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilaviy turmush masalalari, oila-nikoh muammolari, undagi o'zaro munosabatlar bo'yicha tadqiqot ishlari qanchalik keng miqyosda olib borilmasin, hali ham uning etarli darajada tadqiq etilmagan tomonlari mavjud. Ana shunday muammolar qatoriga "O'zbekistondagi aholini manzilli

ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasining asosiy tendensiyalari"ni ilmiy o'rganishni ham kiritish mumkin.

2.2 O'zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o'rganishning aholi turmush farovonligiga ta'siri.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o'rganish aholining turmush farovonligi bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki oila barqarorligida shaxslararo munosabatlarning o'rni beqiyosdir. Oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanishi, u tarbiya o'chog'i sifatida shaxsning shakllanishida muttasil ishtirok etadi. Oilaning ijtimoiy ahamiyatiga molik funksiyasini ta'minlanishida undagi ijtimoiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar, sub'ektlarning kamolot darajasi belgilaydi. Agar rollar, status va o'zaro hamjihatlik inqirozga yuz tutgan holatda oiladagi psixologik muhitni tasavvur qilishni o'zi murakkabdir. Oilada shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos tomonlari uning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Albatta, bu holatni asoslovchi omillarni tadqiq qilishda quyidagicha yo'l tutishni lozim topdik:

Hozirgi zamon oilalarida inqiroz shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yoritish.

Oilada shaxslararo munosabatlarda tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari (fenomenlari)ni ochib berish.

Zamonaviy oilalardagi ijtimoiy psixologik muhit, u bilan jamiyatning o'zaro uyg'unligi, sub'ektlarning maqsad va maslaklarining birligi, qadriyatlar darajasining saqlanayotganligi, etnik va madaniy muhitning undagi munosabatlarda saqlanishi, avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlarga barham berish, ijtimoiy kutishlar, rollar taqsimoti so'zsiz inqirozlarni oldini olishga puxta zamin hozirlaydi.

Bugungi kunda oila muammosiga aloqador masala uning barqarorligini ta'minlash, undagi inqirozli holatlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga davat etadi. Quyida shu xususida mulohaza yuritiladi.

Hozirgi zamon oilalarida inqiroz shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Inqiroz tushunchasini qo'llanilishi deyarli ijtimoiy munosabatlar tizimining barcha bo'g'inlariga kirib bormoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik, shaxs kamoloti o'tgan yuz yillik davomida oilaviy munosabatlar tizimida keskin o'zgarishlarga olib keldi. Bu esa zamonaviy oilaning tarkibiy tuzilmasi, undagi shaxslararo munosabatlarda ancha chigal muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mabodo oila psixologiyasining muammolari bilan masalan, tanishib chiqqanda ham tadqiqotchi psixologlar va amaliyotchi psixologlar e'tiborini tortgan ikkita markazni ko'rish mumkin: oila ijtimoiy tizim tarzida va oila ta'lim beruvchi institut sifatida. Boshqacha aytganda, har holda, hozirgi paytda oila muammolari bilan shug'ullanadigan psixologlar asosan, quyidagi ikkita talab-ehtiyojga xizmat qilishyapti: jamiyatning bazaviy unsuri bo'lgan oila saqlanib qolishini ta'minlash va oilaning jamiyat madaniyatini insonlarning bir avlodidan boshqa avlodiga etkazishini tekshirish. Shu bilan birga tadqiqotlarda va amaliyotda aynan shu ikkita ehtiyojga urg'u berilishi zamonaviy oila o'zining bu ikki eng muhim vazifasini bajara olmay qolayotganligidan guvohlik bermoqda.

Ushbu holni xalqaro miqiyosda ko'rish imkoniyati tug'iladigan bo'lsa, quyidagicha tasvirlashning o'zi kifoya qiladi. Bir qator izlanishlarning ko'rsatishicha, xususan Rossiyada quyidagi sabablar oilalar notinchligining bevosita va bilvosita ko'rsatkichlari hisoblanadi: tug'ilishning halokatli ravishda kamayib borayotganligi, abortlar soni jihatidan dunyoda eng yuqori ko'rsatkich, nikohsiz tug'ilishlarning oshib borayotganligi, bolalar va onalar o'limining g'oyat yuqoriligi, umrining qisqaligi, buzilayotgan oilalar sonining ko'pligi, muqobil nikoh va oila turlarining o'zgaruvchanligi (onalar oilalari, birga yashash, er-xotinning alohida yashashiga

asoslangan oilalar, o'z jinsidagilar bilan qurilgan oilalar, asrandi farzandli oilalar va hokazo), oilalarda bolalar bilan shavqatsiz munosabatda bo'lish hollarining ko'payishi, zamonaviy oilani o'rganuvchi mutaxassislar (faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, iqtisodchilar va boshqa ixtisoslar)ning aksariyat ko'pchiligi "hozir oila haqiqiy tanazzulni boshidan kechirmoqda" degan xulosaga kelishyapti. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining umumiy (o'rtacha) darajasi yuksalgan, kishilarning turmush va moddiy farovonlik darajasi oshgan sari bu tanazzul yanada yorqinroq namoyon bo'lmoqda.

Biroq, bu o'rinda muhim bir izoh berib o'tish zarur: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining jadallashuvi (ayniqsa, xususan hozirgi Rossiya ham shular jumlasiga kiradigan o'tish davri deb ataluvchi bosqichni boshidan kechirayotgan jamiyatlardagi uning yuksak sur'ati) butun jamiyatga, binobarin, uning eng muhim kichik tuzilmasi bo'lgan oilaga baqarorlikni haddan ziyod buzuvchi ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sir oilaviy muammolar sonining ko'payishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning umumiy darajasi bilan ko'proq umumiy bog'liqlikni har jihatdan niqoblab turadi.

Hozirgi oilaning tanazzuli, ko'pincha umuman ijtimoiy hayotdagi katta o'zgarishlar taqozosidir. Sotsiologiya va psixologiya oralig'ida olib borilayotgan tadqiqotlar insonning oila bilan va jamiyat bilan ijtimoiy aloqalari tizimidagi o'zaro munosabatlari tubdan o'zgarishi ko'p jihatdan jamiyat ijtimoiy-guruhiy tuzilishining murakkablashuvi natijasi ekanligini g'oyat ishonchli ravishda ko'rsatib turibdi.

An'anaviy jamiyatlarda va an'anaviy oilalarda vujudga kelayotgan vaziyatlardan farqli o'laroq, hozirgi dunyoda, inson, odatda "Men o'zim kimman va kimga yo'ldoshman?", "Mening uchun nima ahamiyatliroq va nima ahamiyatsizroq, nimaga intilishim kerak va nimaga ahamiyat bermasligim lozim?" degan savollarga tayyor javob ola bilmaydi. Bu savollarga javobni uning o'zi topishi darkor. Zamonaviy insonning ijtimoiy tajribasi, uning dunyo haqidagi bilimlari tobora xilma-

xil, ziddiyatli, "uzuq-yuluq" bo'lib borar ekan, shaxsning o'z o'rnini erkin topish maydoni, binobarin, uning hayotiy muammolari maydoni ham kengaya boradi.

Shunday qilib, jamiyatning va uning "quyi yacheyka"laridan bo'lgan oilaning rivojlanishi har xil oilaviy muammolar ko'payishiga va oqibat natijada zamonaviy oilaning umumiy tanazzuliga olib keladi.

Bu tarzda tanazzulga yuz tutishning ijtimoiy-psixologik sabablarini tahlil qilib ko'raylik. Buning uchun oiladagi qadriyatlar muvofiqligi, er-xotinlarning rolli ustanovkalari, oilaning saqlanishini ta'minlovchi motivlar, ular o'rtasidagi fikrlarning nomutanosibligiga olib keluvchi omillarni, ularning hamkorligini ifodalovchi holatlarga aniqlik kiritish lozim bo'ladi.

Oilaning barqarorligi, shaxslararo munosabatning maqsadga muvofiq kechishi uning a'zolari, xususan er-xotinlarning oilaviy qadriyatlarni qanday darajada kundalik turmushda namoyon qilishlariga bog'liq.

O'zbek etnosida ko'pincha er-xotin o'rtasidagi jinsiy munosabatlar ancha nozik masala sanalib, ular uzoq vaqt mobaynida bu muammoni tahlil qilish mumkin emasdek qaralar edi. Bu voqelik xalq orasida stereotiplashgan tasavvurlarning shakllanishiga olib kelgandir. Bugungi kunda jinsiy munosabatlar oilaning barqarorligi, er-xotinlarning o'zaro yoqtirishi, sog'lom farzand dunyoga kelishi va undagi ahillikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri sanaladi.

Er-xotin munosabatlarining nozik qirralarini oshkor qilmaslik o'zaro hurmat va oilani saqlashni bir yo'li sifatida tushuniladi. Ayrim holatlarda jinsiy uyg'unlikning etishmasligi qadriyatlarni sindirib, oilaning buzilishiga olib kelmoqda.

Jinsiy nomutanosiblik er-xotinlar o'rtasidagi fiziologik jarayonning me'yorida bo'lishi emas, balki psixologik va ijtimoiy psixologik omillarning ham etishmasligi oqibatidir. Ruhiiy taranglik er-xotin o'rtasidagi jinsiy nomutanosiblik, ko'ngilni topa olmaslik, emotsional qo'zg'alishning hosil bo'lmasligi, oilaviy shart-sharoitlarning etishmasligi va ayolning qo'ni-qo'shni ayollar orasidagi mavqeining shakllanganligi

bilan ham bog‘lash mumkin. Ayol yoki erda ruhiy taranglik, asabning buzilishi, kayfiyatning yo‘qolishi, depressiya, asteniklik, g‘azablanish va norozilik hislarining paydo bo‘lishi kabilarni er-xotinlar o‘rtasidagi jinsiy nomutanosiblik deb qarash o‘rinlidir. Nomutanosiblik esa oila barqarorligini ta‘minlay olmaydi. Bundan ko‘rinadiki, zamonaviy o‘zbek oilalarida barqarorlikni ta‘minlashda jinsiy munosabatlarga:

-asosiy omillardan biri sifatida qarashni:

-shaxslik mazmunini inobatga olgan holda er-xotinlar o‘rtasidagi jinsiy nomutanosiblikni ijobiy hal etish pozitsiyasiga ega bo‘lish:

-er-xotin o‘rtasidagi jinsiy nomutanosiblik bo‘lishi mumkin hodisa va undan fojia yasamaslik lozim degan ijtimoiy fikrni (xususan er-xotinlarning o‘zida, qon-qarindoshlar hamda qo‘shnilar orasida) shakllantirish lozim.

Oila barqarorligini faqat er-xotin o‘rtasidagi jinsiy garmoniya hal etadi degan mulohazadan yiroqmiz. Chunki yagona omil butun boshliq, bir tizim yuzasidan xulosalashga asos bo‘la olmaydi.

"Turmush musht", "Oiladagi bir gap ko‘p, bir gap kam" degan shakldagi fikrlarni ko‘plab uchratamiz. Oilaviy munosabatlarda er-xotinning yoki kelin-kuyovlarning to‘yga qadar bir-birlariga muvofiq kelishi ("yulduzi yulduziga" mos kelishi tarzda badiiy tus berishi), o‘zaro sevgi-muhabbat va yoqtirish asosida turmush qurish ancha ijobiy holat sifatida qaraladi. Navbatdagi "Er-xotinlarning shaxs sifatida muvofiqliklarini aniqlovchi shkala nikohdagi sheriklarning maslaklari, qiziqishlari, manfaatlari, qadriyatlar yo‘nalishi, vaqtni o‘tkazishlari bilan bog‘liq bir qator ustanovkalarni mujassamlashtirgan.

Hamkorlik psixologiyasi, o‘ziga sherik tanlash va birgalikda faoliyat ko‘rsatish kundalik turmushda uchraydigan hodisalar. Ular shaxslarning ma‘lum vaqt mobaynida amalga oshiradigan faoliyatlaridir. Aksincha oiladagi er-xotinlarning birgalikdagi, hamkorlikdagi faoliyatini qisqa muddatli biron-bir me‘yor bilan

chegaralab bo'lmaydi. Agar mehnat jamoasida xodimlar o'rtasidagi nizo sababli biri o'zining ishchi o'rnini boshqa jamoaga o'zgartirishi yoki jamoaning boshqa a'zolari bilan yaxshi munosabat o'rnatish orqali o'z xatti-harakatlarini kompensatsiyalashi mumkin. Oilada er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilik, nizolar oqibatida esa yuqoridagi tarzda ish tutib bo'lmaydi.

Diniy-falsafiy nuqtai nazarda ham er-xotonga nisbatan bir pog'ona yuqori bo'lishi lozim deyilsa-da, ammo bu talqin erkakning tabiiy imkoniyatlarini, (jismonan baquvvat, xo'jalik ishlarini boshqarishga moyil) inobatga olib aytilgan. Erkaklarning natijasi nisbatan avtonomiyaga, ya'ni turmush o'rtoqlarining ularni xohish-irodasi, qiziqishlariga muvofiqlashishlaridan dalolat beradi.

Xotinlarning natijalari esa erlarinikiga nisbatan anchagina yuqori. Bu esa ayollarning (qizlarni) o'zlariga turmush o'rtoq tanlashda oqilona yondashishga moyil ekanligini anglatadi. Ayollar o'zbek etnosidagi xotinning eriga tobe bo'lishi, uning manfaatlariga muvofiq xulq-atvori va qiziqishlarini moslashtirish kerak degan an'anaviy tamoyilga amal qilsalar-da, lekin bunday holat kuchli hissiy zo'riqish, frustratsiyaga moyillik, noroziliklar bildirib turish, ajralish xohishining paydo bo'lishiga olib keladi.

Ayollarning natijalari erlariga nisbatan ancha yuqori ekanligi ularni umumiy qiziqishga ega ekanligi, ehtiyojlar, qadriyatlar yo'nalishi, vaqtni o'tkazish usullariga ega bo'lishi lozim deb hisoblaydilar. Metodikaning ushbu shkalasidagi xususiyatlarga ayollar ancha ijobiy qarar ekanlar. Ammo ayollar turmush o'rtoqlari (erlar) ko'pincha yuqoridagi xususiyatlarning hammasiga ham ahamiyat bermasligini bildiradilar degan nuqtai nazarni ilgari sursak bo'ladi. Chunki zamonaviy oiladagi inqirozlarni aynan er-xotin o'rtasidagi shaxslilik identifikatsiyasining mujassamlashmaganlik oqibati deb qarash mumkin. Bu esa oilalarda quyidagi holatlarni e'tibordan chetda qolayotganligini ifodalaydi:

-er bilan xotinlar o'rtasidagi shaxslilik muvofiqlashuvi doimo ham oila qurish jarayonida inobatga olinmayapti;

-erlarda turmush o'rtoqlari bilan umumiy manfaat va qiziqishlar hosil qilishga intilish etarli emas;

-qizlarning (ayollarning) er bilan identifikatsiyalashuvlari ideal rejada bo'lib, reallikka oshmasligi ko'p kuzatiladi.

-erlarni xotinlari bilan bo'sh vaqtni birga qiziqarli, maroqli o'tkazish to'g'risidagi faoliyatlari shakllanmagan.

Aytish joizki, shaxslilik identifikatsiyasi oiladagi shaxslararo munosabatlarning me'yorida bo'lishini ta'minlashda boshqa omillarni ham inobatga olishga chorlaydi.

"Bo'sh qop tik turmaydi", "avval iqtisod, keyin siyosat" shakldagi naqlarni tez-tez takrorlaymiz. Oilaning maishiy-xo'jalik faoliyatini ko'ngildagidek o'tishi er-xotinlarning munosabatlarini, shuningdek, uning barqarorligini ta'minlovchi markaziy omillar sirasiga kiradi. Ammo oiladagi maishiy-xo'jalik faoliyatini boshqarishda kimning etakchilik qilishi kerak? degan savol ko'ndalang turadi. Metodikaning xususiyatiga ko'ra, shkala bo'yicha yuqori natijalar er-xotinlarning bir-biriga nisbatan maishiy-xo'jalik yuritishga nisbatan talab yuqori ekanligini bildiradi.

Ushbu shkaladagi natijalarga ko'ra, erlar 6,350,54, xotinlar 7,120,83 ballni (r-farqlar ishonchliligi kuzatiladi) namoyon qildilar. Milliy an'analarimiz hamda islom dini tamoyillariga ko'ra, nikoh o'qitilayotgan vaqtda yigit kishiga (kuyov bolaga) ijtimoiy buyurtma sifatida xotinni yolg'iz qoldirmaslik, asosiy xo'jalik ta'minotini ta'minlash talablarini qo'yadilar. Ammo zamonaviy oilalarda er-xotinlarning maishiy-xo'jalik yuritishdagi rollarini o'zgarayotganligi ham muayyan nizoli vaziyatlarga olib kelmoqda.

Oiladagi maishiy-xo'jalikni yuritish uzoq vaqt shakllangan ko'nikma va malakalarning natijasidir. Ota-onalar farzandlariga oila qurish ostonasida emas, yoshlik davridanoq yo'nalish berishi o'rinli hisoblanadi.

Maishiy-xo‘jalik yuritish shkalasi bo‘yicha natijalar erkaklarni xotinlariga nisbatan uy-joy ishlariga nisbatan talablari stabillashgan bo‘lsa, ayollar esa erlariga maishiy-xo‘jalik yuritish faoliyatidan etarlicha qoniqmasliklarini va erlaridan faollik, shijoatkorlik, tadbirkorlik hamda xo‘jalik ishlarida uquvlilikni talab etmoqdalar.

Maishiy-xo‘jalik faoliyatining me‘yorda bo‘lmasligi oilaviy munosabatlarga doimo zarar etkazadi. Shu o‘rinda er-xotinlar maishiy-xo‘jalik faoliyatiga aloqador yumushlarni bajarishda hamjihatlikni, o‘zaro tushunishni va voqelik bilan imkoniyatning mosligini inobatga olishlari lozim.

Er-xotinlarni maishiy-xo‘jalik yuritishga tayyorliklari an’anaviy hodisadir. Chunki, o‘ylanayotgan har qanday yigit:

- xo‘jalikdagi jihozlarni tuzata olish;
- duradgorlik, elektr, qurilish yumushlarini uddalash;
- ba’zi bir taomlarni tayyorlay bilish;
- uy hayvonlarini parvarishlash;
- o‘simliklarga ishlov berish va boshqa yumushlarni bajarish malakalariga ega bo‘lishi joiz.

Uzatilayotgan qiz esa:

- uyni saranjom-sarishtalash;
- pishiriqlar va mazali taomlar tayyorlay olish;
- oshxona idishlarini toza-ozoda saqlash;
- mehmon kutishni uddalash va shu singari ishlarni mohirona bajarish talab etiladi.

Sanab o‘tilgan jihatlar nikohdagi sheriklarning maishiy-xo‘jalik faoliyatini psixomotorik tomonidan amalga oshirishni ifodalaydi. Bu xususiyatlarga qo‘shimcha ravishda er-xotinlarga shaxslilik sifatleri ham kamol topganligi shart hisoblanadi: xushmuomalalik, sabr-toqatlik, estetik did, sezgirlik, talabchanlik, samimiylik, hamjihatlik, saranjomlik, bag‘rikenglik, va mehmonnavozlik.

Natijalarimiz er-xotinlarning javoblariga ko'ra, maishiy-xo'jalik yuritish faoliyatida hali nisbatan nomutanosiblik hukmronlik qilayotganligini ko'rsatadi. Natijada er bilan xotinlarning xo'jalik faoliyatidagi rollari o'zgarishiga olib keladi.

Shu sababli, o'zbek etnosidagi "avlodlar estafetasi" tamoyiliga o'g'il-qizlarning oiladagi maishiy-xo'jalik faoliyatini yuritish ustanovkalari ta'siri ostida shakllantirish ma'quldir.

Er-xotinlarning ota-onalik hamda tarbiyachilik funksiyalari to'g'risidagi tasavvurlari, ularning shaxslilik pozitsiyalari, ijtimoiy talablarga mas'uliyat, jamiyat va oila munosabatlaridagi o'rinlarini belgilaydi. Ota-onalik va tarbiyachilik funksiyasiga ularning ijobiy tasavvurga egaligi o'zbek xalqi-ning azaldan "bolajon"ligi natijasidir. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar er-xotinlarning bu boradagi funksiyalariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Er-xotinlarning farzandlariga nisbatan ota-onalik mehri tabiiy asoslansada, ammo tarbiyaviy faoliyatida anchagina tanazzul ko'zga tashlanmoqda. Ota-onalar ko'proq farzandlarning moddiy ta'minoti bilan mashg'ul bo'lishlari, oilaviy tarbiya jarayonida bo'shliqni hosil qiladi. Bu esa zamonaviy oiladagi ijtimoiy-psixologik muhitda inqirozni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, er tomonidan oilaning maishiy-xo'jalik sohasiga asosiy e'tibor qaratayotganligi, unda ota tarbiyasining o'rni bo'shab qolayotgani, onaning uy yumushlari bilan mutassil mashg'ulligi o'g'il-qizlar doimiy nazoratidan chetga qolishga olib kelmoqda.

Natijalar er-xotinlarning ota-onalik, tarbiyachilik ustanovkalari bo'yicha tasavvurlari ijobiy bo'lsa-da, lekin real muhitda bu majburiyatlar "begonalashayotganga o'xshab qolmoqda".

Er-xotinlarning ushbu doiradagi tasavvurlari dastlabki uchala shkala bilan navbatdagi uchta shkalani birlashtiruvchi bo'lib hisoblanadi. SHu bois, shkala er-xotinlarning ota-onalik rollari oilaning bir butun jips tizim sifatida o'z atrofida

birlashtiruvchi qadriyat ekanligini unutmaslik kerak. Oilaning tanazzuli va undagi shaxslararo munosabatlar ham mazkur rollarning buzilishi zahirida yotadi.

Ijtimoiy faollik shkalasi er-xotinlarning maishiy-xo'jalik va tarbiyachilik funksiyalarini sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Albatta, oilaviy munosabatlarning barqarorligi er-xotinning savodxonlik darajasi, kasbiy faoliyati va mahalla-ko'y orasidagi mavqelariga bog'liq.

Er-xotinning oilaviy munosabatlarida e'zozlanishi, muammolarning joy-joyida hal qilinganligi ijtimoiy munosabatlar (er yoki xotinning mehnat qilayotgan jamoasidagi, yashayotgan mahallasidagi, qon-qarindoshlar orasidagi shaxsiy mavqe)dagi rolini belgilaydi.

Erkak kishi oilani moddiy ta'minlash uchun qandaydir ishning boshini tutgan bo'lishi kerak.

Er-xotinning oiladan tashqari qiziqishlari shaxslararo ta'sirlashuv jarayonining asosiy qadriyati hisoblanadi.

Insoniyatning tarixiy-madaniy tajribasida ham er oilani moddiy jihatdan ta'minlashning asosiy kuchi hisoblanadi. Yangi oila qurilayotgan vaqtda, nikohda kuyov yigitdan islom dini qoidalariga ko'ra bir qator shart-talablar qo'yilishini aniq bilamiz. Ammo, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy muhitning o'zgarishi er bilan xotinning oiladagi moddiy ta'minotdagi funksiyasini o'zgarib borishiga olib kelayotganligi uning tuzilishida ba'zan buzilishlarni keltirib chiqarmoqda.

Oilaviy munosabatlarda er-xotinning bir-birlariga nisbatan yoqtirish va yoqtirmasliklarida didga mos kiyinish, go'zal qiyofaga va husnga egalik, o'zaro ta'blarini hisobga olgan holda kiyim tanlashlari, kiyimlarning orastaligini e'tiborga olishlari ham muhimdir. Erkak ham, ayol ham tabiatan tashqi jozibadorlik, go'zallikka da'vogar. Ammo bu da'vogarlikni kim qanchalik darajada amalga oshirishi shaxs kamolotiga bog'liq. "Tashqi" jozibadorlik shkalasiga ko'ra erlar ham,

ayollar ham shaxsiy yoqimtoylik, zamonaviy va orasta kiyinishga intilishlaridan dalolat bermoqda.

Er-xotinlarning oilaviy qadriyatlar shkalalari bo'yicha ko'rsatkichlar qo'yidagi hulosani keltirib chiqardi:

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, er-xotinlar juftligining oilaviy qadriyatlar bo'yicha muvofiqligi ma'lum darajada ekan. Er-xotinlarning oilaviy turmush faoliyatining muhim sohalari bo'yicha farqlari belgilangan me'yordan oshib ketgan (belgilangan me'yor-3 balldan oshmasligi kerak). Er-xotinlar oilaviy munosabatlarida ota-onaning tarbiyachi sifatida, ehtiyojlar, tasavvurlar, ularning turmush maqsadlari muhim o'rin tutar ekan.

Yana shuni aytish joizki, oilaviy munosabatlardagi beqarorlik ota-onalik majburiyatlariga etarlicha tayyor emaslik, e'tiborsizlik, g'amxo'rlik va iliq o'zaro munosabatga, jozibadorlik va zamonaviy tashqi qiyofaning yo'qligi hamda maishiy muammolarni hal etishga imkoni kamligidan dalolat bermoqda.

Oiladagi shaxslararo munosabatlarda tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Shaxslararo munosabatlar ijtimoiy-psixologik va psixologik muhitni optimal ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Bugungi kunda oilalarda kutilayotgan psixologik inqirozlar shaxs kamoloti, shaxslararo munosabatlar ulardagi ijtimoiy muhit, qadriyatlar buzilishi bilan bog'liqdir.

Oiladagi shaxslararo munosabatlarda er-xotin, ota-ona bilan farzandlar, kelin bilan qaynona-qaynota, kelin bilan qayn aka, qayn uka, qayn opa, qayn singil va boshqa yaqin qarindoshlar o'rtasidagi munosabat jarayonlarini kuzatish mumkin.

Oila mustahkamligi nizoli vaziyatlardan xoli bo'lishi, uning a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat va e'zozning shakllanishi qanday omillarga bog'liq.

Shaxslararo munosabatlar "sub'ekt-sub'ekt" bilan bir qatorda "sub'ekt-guruh", "Men-biz" tizimda namoyon bo'lishi ma'lum.

Biz yuqoridagi savollarga javob izlash ma'nosida Lirining nizoli vaziyatlarga munosabat testidan foydalanishni lozim topdik.

Metodika yordamida oiladagi er-xotinlar va qaynota-qaynonalarni tadqiq qilishni ma'qul deb hisobladik.

Chunki, davrlar o'rtasidagi nomutanosiblik, dunyoqarashlardagi nomuvofiqlik va avlodlar orasidagi munozaralar tahlili muammoga muayyan darajada aniqlik kiritadi, deb o'ylaymiz.

Aslida munosabat jarayonidagi tushunmovchilik, ziddiyatlar, shaxsning dunyoqarashi va kamoloti darajasidagi tafovutlar, manfaat, qiziqish va maqsadning mos kelmasligi, o'zaro hurmatning shakllanmaganligi, antipatiya ular o'rtasida turli darajadagi nizolarni keltirib chiqaradi.

Oiladagi shaxslararo munosabatlarda tenglikni ta'minlash uchun ham nizoli vaziyatlar tahlilini yoritib o'tish joiz. SHaxslararo munosabatlarning turmush sharoitida maromga egaligi ham ahamiyatga molik hisoblansa-da, ammo oila a'zolarining "Men" bilan "biz" o'rtasida uyg'unlik va izchillik shakllanmasligi, shaxslarning identifikatsiyalashuvi va ijtimoiylashuvining me'yorida bo'lmasligi ancha ayanchli holat sanaladi. Bunday holatga aniqlik kiritish uchun Liri metodikasini tatbiq etishdan olingan natijalarga psixologik sharh berishni lozim topdik. Natijalar 3-jadvalda keltirib o'tilgan.

Biz natijalarni tahlillashga oila a'zolaridan, ya'ni er-xotin va kuyovning ota-onasi (qaynota-qaynonalar) tomonidan berilgan javoblarga tayanishga harakat qildik. Chunki oilaviy munosabatlarda er-xotin, qaynota-qaynona markaziy timsol hisoblanadi. Shuningdek, metodika natijalarini sinaluvchilarning "Real Meni", "idealdagi er" va "idealdagi xotin" timsollari bo'yicha baholash mo'ljallandi.

Oiladagi shaxslararo tenglik uchun "ideal men" bilan "Real men" o'rtasida mutanosiblik bo'lishi lozim edi. Aksincha, er-xotinlarning "ideal" pozitsiyalari, ularning oilaviy munosabatlarida bo'sh qolgan, ya'ni er-xotinning mas'uliyat hissini

o'z jins vazifalariga ko'ra, bir xilda yurita olmasliklari, yagona maqsad sari intilishda birlikning etishmasligi, mustaqilikka intilish tuyg'uning ustunlik qilishi bilan izohlash mumkin. Bu esa o'z navbatida, oilani boshqarishda shaxsiy mas'uliyatning etishmasligi, uni yuritishda frustratsiyaga, depressiyaga duch kelishiga va shaxsiy faollikda asteniklikni namoyon qilishga sabab hisoblanadi.

Er-xotinlar oiladagi shaxslararo munosabatda liderlik yoki dominantlik pozitsiyalarini rollari bo'yicha amalga oshira olish maqsadga muvofiq. Aks holda, u er-xotin o'rtasida nizo chiqishiga so'zsiz sabab bo'ladi. Bu tendensiya - o'ziga ishonch, mustaqillik, ishchanlik, yuqori ko'rsatkichi esa egoistlikni ifodalaydi. Bu esa er va xotinning "o'ziga ishonch - o'zini yaxshi ko'rish" tendensiyasi natijalari reallik bilan ideallikni taqozo etganligini e'tirof etadi.

Bunday tasavvur timsollari va reallik oilada er-xotin bilan uning boshqa a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni ijobiy xususiyat kasb etishini ta'minlaydi. Mabodo, ushbu tendensiya natijalari uchinchi darajadagi o'rin olganida oilaviy munosabatlarda keskinlik, ixtilof va janjal hukmronlik qilgan bo'lardi. Oilaviy munosabatlarda o'zini yaxshi ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. o'zini yaxshi ko'rish yoki egoistlik oilaviy munosabatdan tashqari, ijtimoiy munosabatning qaysidir doirasida ma'quldir, aks holda namoyon qilish maqsadga muvofiq emas. Oila a'zolari orasidagi egoistlik, jizzakilik, o'zini haddan ortiqcha yaxshi ko'rish (ko'pincha kelin bilan qaynona orasida) inqirozga olib kelishini hayotiy tajriba va kuzatishlar tasdiqlamoqda.

Shaxslar xohlaydimi yoki yo'qmi, insonni "o'zini o'zi yaxshi ko'rish" xislati tabiiy mavjud. "o'zini o'zi yaxshi ko'rish" ni shaxslararo munosabatdagi ijtimoiy me'yorlarga muvofiqlashtirishgina ijobiy hol hisoblanadi. Demak, oilaviy shaxslararo munosabatda er-xotinlarning "o'ziga ishonch" fazilati shakllanganligi ayni muddaodir.

Ayollar ham erkaklarni talabchan bo'lish va xotinlarni esa nisbatan bo'lsa-da turmush o'rtoqlarini tinglovchan, bo'ysunuvchan sherigi bo'lib qolish tarafdoridirlar, ayollarning bunday natijalarini o'zbek xalqining etnogenezidan izlashga to'g'ri keladi. Chunki qizni turmushga uzatayotganda keksalar xotinning eriga nisbatan sadoqati va unga tobe bo'lishi oilani mustahkamlashning shartlaridan biri sifatidagi ustanovkalarining natijasidir.

Ayolning yuqori darajada talabchan bo'lishi yoki erkakda faollikning etishmasligi hamda uning murosasizligi bilan ayolning eriga tobeligining oqibatida kuchli asab buzilishi, tundlikning ortishiga, ojizlik, norozilik, antipatiya, sustlik, qo'pollik va qo'rslikka olib keladi. Oilaga, farzandlarga, ota-onaga, qarindosh-urug'lar va qo'ni-qo'shnilarga nisbatan ham noroziligini namoyon qilish, uning bunday holatga tushishiga atrofdagilarning ham ta'siri borligini anglash boshlanadi. Muruvvat kutish va faqirlikka yo'yish etakchi faoliyatga aylanib, siqilishning oldini olish uchun nizo chiqarish, affektiv holatni namoyon etish, spirtlik ichimlik ichishga moyillik, narkotrop moddalar iste'mol qilishga xohish ortib boradi. SHu o'rinda oilaviy munosabatlarda kosanans (fistenger) pozitsiyasini ustuvorligiga imkon yaratish lozim.

Natijalardan ko'rinadiki, oilaviy munosabatda o'zaro yordam, muloqotmandlikning zarurligini (erkak va ayollar natijalariga ko'ra) tasdiqlasa-da, ammo doimo xayrixohlik, qat'iy fikrning yo'qligi, yon beruvchanlik maqsadga muvofiq emas, degan xulosaga olib kelmoqda.

Oiladagi shaxslararo munosabatda er-xotinlar shart-sharoitga ko'ra, ko'ngil so'rash, xayrixoh bo'lish, o'zaro yordam ma'qulligini, ko'ngilchanlik va yon beruvchanlik, nomustaqillik psixologik to'siqlarni vujudga kelishini, er-xotin shaxsi kamolotida ham nomutanosiblikni keltirib chiqaradi deb taxmin qilamiz.

Kattalarning fikricha, oilaviy munosabatlar uchun o'ziga ishonch, rahmdillik, beg'arazlik, fidokorlik, ishonuvchanlik, itoatkorlik, murosakorlik, mustaqillik

qadriyatlari, shaxs sifatleri zarur jabha ekanligini ko'rsatmoqda. YUqoridagi muloxazalardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Oilaviy shaxslararo munosabatlar murakkab tizimga ega bo'lib, uning asosiy bo'g'ini er bilan xotin o'rtasidagi munosabat hisoblanadi. Er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning hayoti va faoliyatida namoyon bo'ladi. Oilaning shaxslararo munosabatlaridagi barqarorlikni oilaviy qadriyatlarning shakllanganlik darajasi belgilaydi. Bugungi kunda oilaviy qadriyatlar bir qator psixologik jihatlarni o'zida qamrab olgan: jinsiy munosabat, shaxs sifatida identifikatsiyalashganlik, maishiy-xo'jalik, ota-ona-tarbiyachilik, ijtimoiy faollik, emotsional psixoterapevtik, tashqi jozibadorlik.

2. Er-xotinlarning jinsiy munosabatlariga oid qadriyatlar etnopsixologik va milliy madaniy muhit ta'siri ostida namoyon bo'lib, sinaluvchilar ushbu qadriyat zarurligini ta'kidlasalarda, lekin hali ham etnik stereotiplashgan xususiyatga ega.

3. Oiladagi er-xotinlarning o'zaro munosabatlaridagi qadriyatlari bir-biri bilan uzviy xususiyatga ega bo'lib, ularning shakllanmaganligi munosabatlarning beqarorlashuviga olib keladi. Er-xotinning shaxs sifatida identifikatsiyalashuvi oila qurish jarayoni bilan adaptatsiya bosqichida ta'minlanishi zarurat ekanligi kuzatildi. Ota-onaning maslahati bilan shaxsiy maqsadni muvofiqlashtirish, "gardish samarasi" ta'siridan qochishni ta'minlaydi.

4. Er-xotinlarning oilaviy munosabatlari buzilishida uning maishiy-xo'jalik qadriyatlari ahamiyatiga (o'rniga) xotinlar ko'proq ko'rmatkich berishgan. Bu omil erkaklar maishiy-xo'jalik faoliyatning moddiy ta'minotchisi roliga erlar nuqtai nazari bo'yicha esa ayollar oilaning gigienik nazoratchisi roliga yuqori talablar qo'yadilar.

5. Er-xotinning ijtimoiy faolligi ularning shaxs sifatida shakllanganligini, qiziqishlari va kasbiy faoliyatning ahamiyatini belgilaydi. Bu qadriyatlar oilaning maishiy-xo'jalik va ota-ona tarbiyachilik qadriyatlar darajasi shakllanganligini belgilaydi.

6. "Men" ning shakllanganlik darajasi shaxslararo munosabatlarda etakchi rol o'ynashi oiladagi o'zaro munosabatlarda ham kuzatildi. Er-xotinlarning "Real Meni" bilan "ideal Men"i hamda "xohishlariga ko'ra er yoki xotinning" timsolini baholash tizimi differensiallashgan xususiyatga ega. Eralarda ko'proq liderlik, o'ziga ishonch, mustaqillik, tirishqoqlik va faollik yuqori xususiyatlar tarzida mujassamlashganda, ayollar sabr-toqatli, e'tiborli bo'ysunuvchan ekanliklarida munosabatlar maromida bo'lishi kutiladi. Ayollar erlarini faol, o'ziga ishongan, talabchan, jizzaki bo'lmagan, tinglovchan, fidoyi shaxsligi bo'lishini munosabatlar uchun ancha qo'l kelishini ta'kidlashadi.

X U L O S A

O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganishning aholi turmush farovonligiga ta‘sirini hisobga olmay turib oila-nikoh munosabatlarini, oilaviy turmush faoliyatini, uning barqarorligi va farovonligini maqsadga muvofiq yo‘sinda tashkil etish va amalga oshirish mumkin emas. Bu holat, uning asosiy vazifasi-farzand ko‘rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar davomiyligini va er yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta‘minlash, muqaddas urf-odatlarimizni saqlash va uni avloddan-avlodga o‘tkazishdek vazifani bajarish samarasini ham pasaytiradi.

Oila barqarorligi va farovonligining asosi bo‘lgan shaxslararo munosabatlar ta‘sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy asoslash tadqiqotimizning asosiy metodologik tuzilishi sifatida qabul qilingan bo‘lib, uning atrofiga oila sub‘ekti er-xotin shaxsi va faoliyatining barcha jihatlari: ularning milliy-psixologik va milliy madaniy bilimlari, ular shaxsi va faoliyatidagi milliy tipiklik va ijtimoiy tipiklik, o‘zbek xalqiga xos o‘zini o‘zi anglashi va hokazolar semantizatsiyalandi (tuzildi).

Tadqiqot natijasida o‘zbek oilasining milliy qiyofasini belgilaydigan (oydinlashtiradigan) ijtimoiy-psixologik asoslar muayyan darajada yoritildi. Biz o‘zbek halqining urf-odatlarini, an‘analari, madaniyati, turmush tarzini, shuningdek, hududning oila hayoti va faoliyatiga ta‘sir etadigan xususiyatlarini hamda ijtimoiy madaniy muhitni mazkur oilaning milliy qiyofasi mohiyatini tashkil etuvchilar sifatida e‘tirof etdik.

Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta‘sirining muqaddas kitoblardagi bayoni va sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqinni o‘rganishimiz O‘zbekiston hududida qadimdan oilaviy turmush madaniyati yuksak darajada rivojlangan, deya xulosa chiqarishga imkon berdi, (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Inb Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin Ibn Faxruddin va boshqalar) dissertatsiyani

yozishda mamlakatimiz va chet ellardagi olimlarning o'z muammomizga o'xshash tomonlari mavjud asarlaridagi materiallarni maksimal darajada hisobga olishga harakat qildik. Lekin hajmi katta tadqiqotimiz materialini uzluksiz to'ldirib berishimizga to'g'ri keldi. Chunki shu sohada olib borilgan tadqiqotlar milliy-madaniy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan ya'ni o'ziga xosligi bilan, keskin tafovutlanishi tabiiy hol.

Shuni qayd etish juda muhimki, mazkur muammoga doir yirik asarlarning ko'pi shunchaki ijtimoiy buyurtmani bajarmay, o'zining chuqur e'tiqodini ifodalagan taniqli olimlar tomonidan yozilgan. Ularning asarlarida psixologiya fanini, xususan ijtimoiy psixologiya, oila psixologiyasi va etnopsixologiyani rivojlantirish uchun juda ko'p qimmatli faktlar va g'oyalar bor (K.A.Abulxanova-Slavskaya, Yu.E.Aleshina, B.G.Ananov, G.M.Andreeva, A.A.Badalev, Yu.V.Bromley, L.S.Vigotskiy, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, A.N.Leontev, B.G.Lomov, N.N.Obozov, S.L.Rubin-shteyn, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziev va boshqalar). Mazkur olimlarning shu sohadagi jiddiy asarlari himoyaga tavsiya etilgan dissertatsiya ishining nazariy metodologik asosini tashkil qildi.

Albatta tadqiqotimiz oldiga qo'yilgan masalalarni hal qilishga metodologik yondashuvimizda chet el mualliflaridan K.Arons, K.Vitek, E.F.Vougel, V.Vund, A.Maslau, T.Person, K.R.Rod-jers, J.Roland, N.Dj Smelzer, J.Techman, Z.Freyd, E.Fromm, G.Entone, K.G.Yung, M.Xanson va boshqalarning metodologik nuqtai nazarlari ham alohida e'tiborga olindi.

Biz amalga oshirgan tadqiqot natijalari dastlabki ilmiy farazimizni to'la tasdiqlaydi va malakaviy bitiruv ishi bo'yicha quyidagi umumlashgan xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

1. Olingan ma'lumotlarning guvohlik berishicha, o'zbek xalqi-ning uzoq tarixga ega ijtimoiy-madaniy muhiti, turmush tarzi, madaniyati, milliy ongi va o'zini o'zi anglashi, milliy xarakteri, xulq-atvor stereotiplari va o'ziga xosligini ilmiy

o‘rganish oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta‘sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashga imkon yaratdi.

2. Mavzuga daxldor sifatida o‘rganilgan sharq xalqlari, xususan o‘zbek xalqi oilaviy turmush, er-xotin munosabatlari, ularning vazifa va burchlari, sifat va fazilatlari aks etgan muqaddas diniy manbalar, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, sharqning buyuk mutafakkirlari va ma‘rifatparvar ziyolilari asarlarida qimmatli ma‘lumotlar jamlangan. Ulardan hozirgi yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlashda va oilaviy turmush amaliyotida samarali foydalanish mumkin.

3. Tarixiy manbalarning dalillashicha, qadim-qadimdan oilaga muqaddas maskan, inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta‘minlaydigan ijtimoiy institut sifatida qaralgan. Shu bois, oila va nikoh masalalariga, oilaviy turmush tartib-qoidalariga, er-xotinning vazifa va burchlariga alohida e‘tibor berilgan. Oila turmushi bilan bog‘liq muammolar uning farovonligi, farzandlar kamoloti, er-xotinning ezgu-istaklari va manfaatlariga mos hal etilgan. o‘zbek xalqining oilaviy turmush xos tarixiy taraqqiyot davomida orttirgan tajribasi uning muammolarini hal qilish va turmush tarzini maqsadga muvofiq tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Jamiyatning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti va unda kechgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma‘rifiy o‘zgarishlar oila turmush tarziga bevosita ta‘sir etgan (aks etgan). Oila taraqqiyoti tarixining hamma bosqichlari va zamonlarida oilaviy turmushga xos turli muammolar shakllangan va ular jamiyatshunoslik, insonshunoslik fanlarining muhim masalalari sifatida qaralgan.

5. Oilaviy turmush masalalarini o‘rgangan uzoq va yaqin chet el psixologiyasi aynan oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta‘sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganmagan bo‘lsa-da, uning barqarorligini saqlovchi yoxud buzilishlariga olib keluvchi iqtisodiy, ijtimoiy-biologik, ijtimoiy-psixologik, ma‘naviy-madaniy, hissiy-emotsional, tarbiyaviy-pedagogik omillar ta‘sirini o‘rganganlar va oilaviy turmush muammolarini echish bilan bog‘liq qimmatli

ma'lumotlar, ilmiy xulosa va tavsiyalarni ilgari surganlar. Mazkur ilmiy natijalar biz tanlagan muammo uchun ham ahamiyatli ekanligini e'tirof etgan holda tadqiqotlarimizda milliy hududiy xususiyatlar chuqur mujassamlashgan o'zbek oilalari turmushiga, er-xotinning o'zaro munosabatlariga, uning barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining milliy-psixologik xususiyatlariga alohida e'tibor bilan yondoshdik.

6. Mamlakatimiz psixologlari (boshqa ijtimoiy-gumanitar fan sohalari vakillari ham) tomonidan oila va nikoh munosabatlari, oilaviy turmushning turli jabhalariga xos muammolar muayyan darajada o'rganilayotgan bo'lsa-da, lekin oilaviy turmushga xos ba'zi muammolar hali ham dolzarbligicha qolmoqda. CHunonchi, oila-nikoh munosabatlarining beqarorligi, ajralishlar sonining oshib borishi, unda er-xotin o'rtasidagi munosabatlarda turli omillar bilan bog'liq. Ziddiyatlarning yuzaga kelishi va ularning keskinlashuvi, oilaviy muammo va ziddiyatlarning milliy-hududiy o'ziga xosligi saqlanib qolmoqda. Mazkur muammolar o'zbek milliy madaniy muhiti shart-sharoitlari ta'sirida oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishni taqozo etdi.

7. Oiladagi shaxslararo munosabatlar milliy-hududiy xususiyatlarga uzviy bog'liq murakkab tizimga ega bo'lib, uning asosiy bo'g'ini er bilan xotin o'rtasidagi munosabat hisoblanadi. Undagi shaxslararo munosabatlar barqarorligini oilaviy qadriyatlarining shakllanganlik darajasi belgilaydi. Er-xotinlar munosabatlariga oid (jinsiy munosabat, shaxs sifatidagi identifikatsiyalashganlik, maishiy-xo'jalik, ota-ona-tarbiyachilik, ijtimoiy faollik, emotsional psixoterapevtik, tashqi jozibadorlik) qadriyatlar etnopsixologik va milliy-madaniy muhit ta'siri ostida bo'lib, sinaluvchilar bu qadriyatlar zarurligini ta'kidlasalar-da, lekin hali ham etnik stereotiplashgan xarakterga ega.

8. Er-xotinlarning shaxslararo munosabati bilan oilaviy qadriyatlari o'zaro uzviy xususiyatga ega bo'lib, ularni shakllanmaganligi munosabatlarning

beqarorlashuviga olib keladi. Er-xotinning shaxs sifatida identifikatsiyalashuvi oila qurish jarayoni bilan adaptatsiya bosqichida ta'minlanishi zarurat ekanligi kuzatiladi. Ota-onaning maslahati bilan shaxsiy maqsadni muvofiqlashtirish, "gardish samarasi" ta'siridan qochishni ta'minlaydi.

9."Men"ning shakllanganlik darajasi shaxslararo munosabatlarda etakchi rol o'ynashi oiladagi shaxslararo munosabatlarda ham kuzatildi. Er-xotinlarning "real meni" bilan "ideal meni" hamda "xohishlariga ko'ra, er yoki xotinning" timsolini baholash differensiallashgan xarakterga ega. Erlarda ko'proq liderlik, o'ziga ishonch, mustaqillik, tirishqoq va faollik yuqori xususiyatlar tarzida mujassamlashganda, ayollar sabr-toqatli, e'tiborli, bo'ysunuvchan bo'lganlarida munosabatlar maromida kechishi kuzatiladi. Ayollar erlarining faol, o'ziga ishongan, talabchan, muvozanatli, tinglovchan, fidoyi kishi sifatida tasavvur qilishi bo'lishini munosabatlar uchun qo'l kelishini ta'kidlashadi.

10. Oilaviy munosabatlarni insonparvarlashtirishda insonparvarlik psixologiyasining "hayotdan-idealga" qoidasiga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Unga ko'ra, shaxs sifatida o'zini namoyon qilishning muayyan shart-sharoitlarini yaratish, reallikdagi-ideal narsani o'rganib, nazariy tasavvurlar va voqelikning o'zini rivojlantirish yo'li bilan bu idealni tiklashning psixologik amaliyotini yuzaga keltirish mumkin. Jumladan, nikohga kiruvchilar (oilalarni quruvchilar) dastlab oilaviy turmush tarzi to'g'risidagi real tasavvurlarga ega bo'lish bilan birga jamiyatda mustaqil yashashni, turli ijtimoiy guruhlar doirasida muomala qilishni, shaxslararo munosabatning har xil (zarur) shakllari va usullarini egallay olishi shart.

11. O'zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini belgilashda er-xotin munosabatlaridagi o'zaro hurmat va ishonch, bir-birini yaxshi tushunish, farzandlar, muomala odo, onglilik va ma'naviy axloqiy mavqe, uning moddiy

ta'minlanganligi, uy-joy bilan ta'minlanganlik, rollar taqsimotining mosligi, jinsiy moslik muhim omillar hisoblanadi.

Oilaviy nizolarning shakllanishi va ularning buzilib ketishida er-xotin fe'l-atvorining mos kelmasligi, farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning etarli emasligi, uning byudjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar bo'lib, ro'zg'or ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning er-xotin munosabatlariga aralashuvi, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, jinsiy nomoslik kabi omillar ham oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kelib chiqarishda muhim o'rin tutadi.

12. Hozirgi sharoitda shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashti-rishda oilaviy psixoterapiya vositalari va usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, ular oilaning me'yorli faoliyat ko'rsatishiga, undagi ziddiyatlarning turlari va ularning shakllanish sabablarini o'rganishga, profilaktikasini tashkil etishga hamda shaxslararo munosabatlar muvofiqligini ta'minlashga yordam beradi.

Oilaviy psixoterapiya mohiyatan ko'proq insonparvarlik yo'nalishlar tomon intilgan bo'lib, zamonaviy oila rivojlanishida insonga xos yuksak mayllar, sifat va fazilatlarni takomillashtirishga yordam berishga da'vat etilgan.

13. Tadqiqot davomida o'zbek milliy madaniyatining betakrorligi, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarning hayotiyliги oilaviy turmush tarziga ham chuqur singib ketganligini ko'rdik. Chunonchi, aksariyat oilalarda nizolar uchramaydi, buning asosiy sabablari ularda sevgi, mehr-muhabbat va o'zaro ishonchning mavjudligi, unda ota-onalar va qarindosh-urug'lar bilan hamjihat va hamfikrlilikning ustunligi, kengashib hamjihatlik bilan ish tutish, rollarning to'g'ri taqsimlanganligi va o'zaro yordamning mavjudligi, uy ishlarining saranjom-sarishta va orastaligi, fe'l-atvorning mosligidadir.

14. Tadqiqot natijalariga asoslanib, o'zbek oilasining andozaviy tasviri belgilandi. Unda psixikaning muhim xususiyatlaridan biri tarixiylik va uning davriy

xususiyatga ega ekanligi e'tiborga olindi. Chunki, oilaning shakllanishi va undagi shaxslararo munosabat ishtirokchilari faoliyati muayyan tarixiy davrlarda amalga oshadi. Bu esa oilaning andozaviy tasvirini izohlashda bir necha bosqichli oila sub'ektlari faoliyatini loyihalashtirishni taqozo etdi.

Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga asoslangan holda bo'lg'usi oilaning andozaviy tasviri:

- a) oila qurilgan davr;
- b) oilani shakllanganlik davri;
- v) oilada qaynona va qaynotalik davri faoliyat natijalari loyiha-
lashtirishdan iborat bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi. - 1993. - №9. - 338-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari " to'g'risidagi farmoniga sharh.//Zarafshon 2015 yil 19 may, № 65 (22.538).
4. O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. - 1999. - №5. - 115-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida" gi 1999 yil 13 yanvardagi PF-2177-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. - 1999. - №1. - 36-modda.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida"gi 2002 yil 25 yanvardagi PF-3017-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - 2002. - №2. - 15-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2007 yil 19 martdagi PF-3864-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - 2007. - №12. - 105-modda.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “YOsh oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2007 yil 18 maydagi PF-3878-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. - 2007. - №19-20. - 192-modda.
9. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari. 2003 y., 19-son, 172-modda.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 23 apreldagi «Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to‘g‘risida»gi 1994 yil 16 iyundagi «Bolali oilalarga davlat ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi va boshqa Farmonlari.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari. 1-6-sonlar. - T.: “Adolat” 1994-2003 yillar.
12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1993 y., 9-son, 338-modda.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 26 yanvardagi «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish to‘g‘risida»gi Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2015 yil 28 yanvardagi «Keksalarni e’zozlash yili» dasturi to‘g‘risida»gi Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari./ Информационно-правовая система «Norma». ООО «NORMA HAMKOR». Versiya-3, 2005.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari. - T., Adolat, 1994yil.
17. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1992y., №2, 38-78moddalari.
18. O‘zbekiston Respublikasi “Nogironlarni ijtimoiy himoyalash to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekistonning yangi qonunlari. №5, T., “Adolat”, 1994y.
19. O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining Axborotnomasi. 1992 y., 2-son, 80-modda.

20. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1993 y., 9-son, 338-modda.
21. «Davlat pensiyalari to‘g‘risida»gi 1956 yilgi va «Kolxozchilarga pensiya va nafaqalar tayinlash to‘g‘risida»gi 1964 yilgi qonun va h.k.
22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyundagi «Bolali oilalarga davlat ijtimoiy yordami tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni va boshkalar.
23. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashida 1993 yil 3 sentyabrda qabul qilingan «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-2002 yillardagi Farmonlari va boshkalar.
24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 24 avgustdagi qarori va uning ilovalari.

2. Prezident I.A.Karimov asarlari:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1.- Toshkent: O‘zbekiston, 1996. - 364 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. - 380 b.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. - 366 b.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. T.4. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. - 349 b.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. - Toshkent: O‘zbekiston, 2000. - 528 b.
6. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. T.16.- Toshkent: O‘zbekiston, 2007. - 357 b.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. -Toshkent: "O‘zbekiston", 2001. 187-bet.

8. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. - T.: O‘zbekiston, 2011. - 48 b.
9. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2012.419-bet.
10. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. - T., O‘zbekiston, 2005, 6-b.
11. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - 176 b.
12. Karimov I.A. «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida», - T: O‘zbekiston 1995. 129-130.
13. Karimov A.I. O‘zbekiston - bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li.- T.:O‘zbekiston,-B.74.
14. Karimov I.A. Bizning maqsadimiz-erkin va farovon, demokratik hayot qurish. //Xalq so‘zi, 2015 yil 5 mart. № 44 (6227).
15. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – T.: O‘zbekiston, 1995. – 121-bet.
16. Karimov I.A. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusida xalqaro konferensiyadagi nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2012 yil 21 fevral. №9(792).
17. Karimov I.A. “Inson,uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari-eng oliy qadriyat”//Xalq so‘zi, 2005yil,10 dekabr.
18. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi// Xalq so‘zi, 2015 yil 6 dekabr, № 237 (6167).

19. O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozash-bizning farzandlik burchimizdir. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 9 may-Xotira va qadrlash kuni mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda//Xalq so'zi 2016 yil 10 may, № 93 (6276).
20. 2016 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish-ustivor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2016 yil 17 yanvar, № 11 (6194).

3. Kitob va turkum nashrlari:

1. Ahmedov D.Q. Bozor munosabatlari sharoitida davlat itimoiy himoya siyosatining huquqiy jihatlari. - Toshkent: TDYUI, 2006. - 208 b.
2. Altshuler E.A. , Kolosov A.V. Nauka o dolgoletii. – M.: Soyuz, 1974. – S. 14
3. Voevodin L.D. Pravovoy status lichnosti. - M.: “Nauka”, 1997.
4. Gaziev Sh. Mahalla va kichik oilaviy biznes. Risola. – T.: TDYUI, 2011 yil.
5. Gaziev Sh. Mahalla – ijtimoiy himoya maskani. // TDYUI Axborotnomasi. – Toshkent, 2007. – № 6. – B. 60.
6. Ismoilov Sh. Ijtimoiy ta'minot huquqi. - Toshkent: TDYUI, 2006. - 227 b.
7. Kim L., Isaeva D., S.Tadjieva.D.Sobirova.”Bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti”kursi bo'yicha xrestomatiya. - T.- JAHON PRINT nashriyoti.2012-yil.6-bet.
8. Zokirov B.I.O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. -T.:Adolat,1996. 36-50 b.

9. Machulskaya E.E. Praktikum po pravu sotsialnogo obespecheniya. - M.: Norma, 1998. - 252 s.
10. Xalmatova M., Safaeva S. O'zbekiston: inson omili va aholini ijtimoiy himoyalash. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 132 b.
11. Mamut L.S. Sotsialnoe gosudarstvo s tochki zrenii gosudarstva. – M.: 2001 g.
12. Myorfi T. Razvitie sotsialnoy raboty v Uzbekistane v mejdunarodnom kontekste. – Tashkent, RSSAD. - 2008. - 26 s.
13. Mkrtychyan T.M., Chistyakov I.M. Sotsialnaya politika v Rossii. – M.: 1999 g.
14. Nabiev F.X. Ijtimoiy nazorat. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015. - 220 bet;
15. Teoriya praktika sotsialnoy raboty: Metodicheskie materialy. / Otv. red. Popov A.M., Xolostova E.I. – M.: In-t Sots. raboty, 1997. – S. 71.
16. Trubin V.V. Strategiya reformirovaniya sistema sotsialnoy zashchity. – M.: 2000 g.
17. Tuchkova E.G. Zaxarov M.L. Sotsialnoy obespechenie i obslujivanie pensionerov. – M.: Nauka.1987.11-b.
18. Tursunov Y., Shoimxonov Z. Ijtimoiy ta'minot huquqi. - Toshkent: TDYUI, 2003. - 229 b.
19. Tursunov Y. Xalqaro mehnat huquqi. Darslik. – T.: TDYUI, 2010 yil.
20. Usmanova M.A. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoyani tashkil etishning fuqarolik-huquqiy muammolari.- Toshkent: TDYUI, 2005. - 196 b.
21. Usmanova M.A. Keksalarni va nogironlarni ijtimoiy himoyalash. - Toshkent: Fan, 1994. - 21 b.
22. Usmanova M.A. O'zbekistonda ijtimoiy himoya: fuqarolik-huquqiy jihatlari. T., TDYUI, 2005., 42-b.
23. Usmanova M., Tursunov Y., Gaziev Sh. Aholini yo'naltirilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va uning huquqiy muammolari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: TDYUI, 2006. - 109 b.
24. G'ulomov M. Mahalla - fuqarolik jamiyati asosi. - Toshkent: Adolat, 2003. - 302.

25. G'anieva M.X. "Ijtimoiy ish asoslari". metodik qo'llanma. - T.: "CHASHMA PRINT", 2010. - B.55;
26. O'z farzandiga madad bo'l: Imkoniyati cheklangan farzandlari bo'lgan otalar uchun qo'llanma. Tuzuvchilar: J.K.Fozilov, U.Yu.Fayzieva, Z.U.Shomurotova, I.S.Nasirova, Sh.S.Akramova, Z.U.Shomurotova. – T.: "Yurist-media markazi" nashriyoti, 2010 yil, 120 bet;
27. "Oila va bolalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti: pedagogik va psixologik modullar"/ S.X.Tadjieva, X.T. Xusanova, E.S.Melkumyan, O.A.Tadjixanova. – T.: "Niso Poligraf", 2014, - 96 bet;
28. Ijtimoiy ish mutaxassisligi bo'yicha atamalarning qisqacha izohli lug'ati. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2012. - 87 bet
29. O'zbekiston Respublikasi. – T.: O'zbekiston 1995. 15-bet.

4. Dissertasiya va dissertasiya avtoreferatlari:

1. Alibekova S. O'zbekistonda aholi turmush darajasining shakllanishi va o'sishi omillari: avtoref.dis...iqt.fan.nomz.-Toshkent: O'zRDJQA,2003 yil;
2. Demko A.A. Проблемы правового регулировании деятельности органов местного самоуправления в сфере социального обслуживания населения: Дис. ...канд. юрид. наук. - Tyumen, 2003. - 218 s.
3. Usmanova M.A. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoyani tashkil etishning fuqarolik-huquqiy muammolari: YUrid. fan. d-ri.dis...avtoref - Toshkent: TDYUI, 2006 yil.
4. Gaziev Sh. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy himoya faoliyatini takomillashtirish muammolari: Yurid. fan. nomz.dis...avtoref. – T.: TDYUI, 2009 yil.
5. Xazratqulov A. Социальные проблемы Узбекистана и пути их решения: Автoref.diss...канд.ekon.nauk. – Toshkent, 1994 g.;

6. Xolbekov A. O‘zbekistonda jamiyatning demokratlashuvi jarayonida ijtimoiy adolatni amalga oshirish muammolari (siyosiy-sotsialogik tahlil): Sots.fanlari dok....avtoref. – Toshkent: O‘zRDJQA, 2001. – 21 b.
7. Demko A.A. Проблемы правового регулирования деятельности органов местного самоуправления в сфере социального обслуживания населения: Дис. ...канд. юрид. наук. - Тюмен, 2003. - 218 с.

5. Ilmiy va ommabop maqolalar:

1. Kudryavsev V., Lukasheva E. Novoe politicheskoe myshlenie i prava cheloveka //Chelovek i politika, 1991. №1. S-30-38;
2. Topornin B.N. Prava cheloveka i razdelenie vlastey //Prava cheloveka: vremya trudnykh resheniy. Moskva, 1991. S.76-94.
3. Agronovskaya E.V. Sotsialnye prava v usloviyax rynka. //Prava cheloveka: vremya trudnykh resheniy. Moskva, 1991. S. 94-108.
4. Usmanova M. A. Ijtimoiy ta’minot olish huquqi: qonunchilikni takomillashtirishning ayrim masalalari”. //“Barkamol avlod yili” va mehnat qonunchiligini takomillashtirishning ayrim masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.: TDYUI. 2010, 5-8 - betlar.
5. B.Israilov, Atajanova D. Yoshlarni ijtimoiy himoyalashda NNTlarning o‘rni. // Qadriyat.2011y.15 aprel.
6. Usmanova M.A. Ijtimoiy himoya: unda NNTlarning ham muhim o‘rni bor. // “Ma’rifat” gazetasi 2011 yil 19 fevral.
7. Gaziev Sh.M. Aholini ijtimoiy himoyalashda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rni. // “YOsh olimlar” ilmiy maqolalar to‘plami. – T.: TDYUI. 2011. – B.45-48.
8. Maxsumov S. Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llabg‘quvvatlash yanada keng miqyosda davom ettiriladi//Xalq so‘zi 2015 yil 25 aprel, №82 (6265)

9. Xidirov Q. Fuqarolik jamiyati rivojining yorqin ifodasi//Xalq so‘zi 2015 yil 25 aprel, № 82 (6265).
10. Ro‘zmetov E. Keksa avlodga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish – ulug‘ fazilat // Xalq so‘zi 2015 yil 7 mart, № 46 (6229).
11. Keksalarni e‘zozlash – barchamizning farzandlik burchimizdir // Ma‘rifat, 2015 yil 28 fevral, № 17 (8770).
12. Yusupov R.K., Qahhorova M. Keksalarni ijtimoiy himoyalash va uning demografik jihatlari.// Yoshlar olami 2015 yil 18 aprel, № 08 (266).
13. Mametova M. fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi oshmoqda//Ma‘rifat 2015 yil 25-aprel, № 33 (8786).
14. Maqsadli, manzilli himoya uchun. // Xalq so‘zi. 2005 yil 11 fevral.
15. Yusupov R., SHerov M. Ijtimoiy ish-yangi davr mutaxassisligi// Samarqand universiteti 2015 yil, 22 aprel, № 4 (1153).
16. Odilov Q. Ming yillik rivojlanish maqsadlari: O‘zbekistonning ilg‘or tajribasi//Hurriyot 2014 yil 3 dekabr, № 48 (904).
17. Maxsumov S. Saylovlar haqqoniy va adolatli o‘tdi//Xalq so‘zi, 2015 yil 1 aprel, № 64 (6247).
18. Qorjovov A. “O‘zbek modeli”ning salohiyati nimada?//Zarafshon, 2015 yil 12 mart, № 32 (22.505).
19. Pravda Vostoka gazetasi. 2005 yil 8 iyul.
20. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2015 yil 26 yanvar.

6. Internet veb-resurslari

- 6.1. <http://www.parliament.gov.uz>
- 6.2. <http://www.gov.uz>
- 6.3. <http://www.ziyonet.uz>